



**O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI OLIY VA
O'RTA MAXSUS TA'LIM VAZIRLIGI**

**ZAHIRIDDIN MUHAMMAD BOBUR NOMIDAGI
ANDIJON DAVLAT UNIVERSITETI**

**PEDAGOGIKA FAKULTETI
PEDAGOGIKA VA PSIXOLOGIYA TA'LIM YO'NALISHI
4-KURS TALABASI
MAMATIMINOV BOBOMUROT**

BITIRUV MALAKAVIY ISHI

Mavzu: Yurist faoliyatining ijtimoiy-psixologik xususiyatlari

ILMIY RAHBAR:

G.R. TOJIBOEVA

Andijon – 2012

Mundarija

Kirish.....	3-8
I. BOB. Yuridik mehnat psixologiyasi.....	9
I.1. Yuridik mehnat psixologiyasining asosiy vazifa va qonuniyatlari.....	9-12
I.2. Uyushgan jinoyatchilik va jinoiy guruhlar psixologiyasi.....	13-20
I.3. Sud - psixologik ekspertizasi.....	21-30
II. BOB. Yuridik faoliyatning ijtimoiy-psixologik asoslari.....	31
II.1. Jinoyatchi shaxsini asosiy kriminal, tipologik tiplarining.....	31-35
II.2. Muloqot jarayonida psixologik aloqani o'rnatish va rivojlantirish taktikasi.....	36-46
II.3. Turli toifadagi qonunbuzarlarning psixologik jihatlari.....	47-58
Xulosa.....	59-60
Psixologik tavsiyalar.....	61-63
Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati.....	64-65

KIRISH

O'zbek millatining uzoq asrlik tarixida keyingi o'n yillikda erishgan mustaqilligimiz alohida o'rin tutadi. Mustaqillik necha asrlar davomida yaratilgan boy ma'naviy-ma'rifiy va ilmiy merosimizni nafaqat o'rganish, balki uni davr talablari asosida qaytadan idrok etish va milliy manfaatimizga xizmat qildirish vazifasini oldimizga qo'ydi. To'plangan tajribalarimiz va qadriyatlarimiz negizida milliy istiqlol mafkurasining yangicha tamoyillari yaratildi. Ozod va obod Vatan, erkin va farovon hayot barpo etishdek pirovard maqsadimizdan kelib chiqib, ta'lim-tarbiya, ma'naviy-ma'rifiy sohalaridagi faoliyatimizni ulkan bir vazifaga – xalqimiz ongiga milliy istiqlol g'oyasini singdirish, ularda uzoq yillar davomida shakllangan va ulug'langan umuminsoniy va milliy qadriyatlarni qayta o'zlashtirish, e'zozlash hamda uning aqidalarini hayotda qo'llashga qaratmoqdamiz. Bu borada qiladigan ishlarimizni Prezidentimiz I.A.Karimov aniq-ravshan ko'rsatib berganlar: «Endigi vazifamiz shundan iboratki, milliy istiqlol g'oyasi tushunchalari asosida keng jamoatchilik, ziyolilarimiz, ilm-fan va madaniyat namoyandalari, avvalo, ma'naviy-ma'rifiy soha xodimlari milliy mafkurani takomillashtirish hamda uning asosiy tamoyillarini odamlar ongiga va qalbiga singdirishga qaratilgan ishlarni yangi bosqichga ko'tarishlari zarur».

Davlatimiz rahbari belgilab bergan vazifalarni amalga oshirishdan hyech kim chetda turmaydi. Davr barcha ziyolilar qatori huquqshunoslar va tilshunoslar oldiga ham yangi vazifalar qo'ydi. Bu vazifalarni amalga oshirishni lo'nda qilib, bir tomondan, yaratilayotgan huquqiy-me'yoriy hujjatlarning jahon andozalari darajasida bo'lishi hamda milliy mintalitetimiz va manfaatimizni himoya qilishi, ikkinchi tomondan, ularning davlat tilida mukammal yaratilgan bo'lishi, ham qonuniy, ham til jihatdan hyech bir e'tirozlarga o'rin qoldirmasligi tarzida tushunish to'g'ri bo'ladi. Buning ustiga, xalqimiz o'rtasida huquqiy madaniyatni targ'ib qilish, qonunlar va boshqa huquqiy-me'yoriy hujjatlardan ularni xabardor qilib borish nutqiy madaniyat bilan bog'liq bo'lgan g'oyatda mas'uliyatli vazifani amalga oshirishni ham taqozo etadiki, bu borada huquqshunoslarning ma'lum malakaviy va nutqiy ko'nikmalarni ellashlari lozim bo'ladi.

Jamiyatimizga barcha kasbdagi kishilar va ularning mehnati kerakligini hyech kim inkor etmaydi. Ammo har bir millat dunyo ilmi va madaniyatida ona tili bisoti bilan qanchalik faxrlana olishi mumkinligini ham chuqur anglaymiz. Binobarin, til - ma'naviyat ko'zgusi, ma'rifat chirog'i, bilim kaliti ekan unga hyech qachon ikkinchi darajali narsa deb qaray olmaymiz.

Yuridik til muammolari bo'yicha tadqiqotlar olib borayotgan Sh.Ko'chimovning ma'lumot berishicha, AQShning Illinoys va Chikago universitetlarida, Angliya, Shvesiya kabi davlatlarning oliy yuridik ta'limi tizimida huquqshunos kadrlarning til tayyorgarligiga alohida e'tibor qaratilishi, har bir talaba maxsus til tayyorgarligidan o'tishi, til fani bilan bog'liq «Nutq

o'rganishga kirish», «Yuridik nutq», «Sud notiqligi», «Sudda nutq so'zlash va haqiqat muammolari», «Yozma nutq», «Ommaviy muomala nutqi», «Siyosiy nutq», «Ijtimoiy nutqiy muomala», «Bayonnomalar (protokollar) tahlili», «Nutq maktabi» kabi 45 dan ortiq maxsus o'quv kurslari mavjud¹.

Huquqshunoslik yo'nalishidagi ta'lim tizimida o'qitiladigan «Yuristning nutq madaniyati» kursi talabalarga ana shu muammolarning yechimini topishda yordam berishga, yuridik til sirlarini, qonun-qoidalarini, nutqiy madaniyat ko'nikmalarini o'rgatishga qaratilgan.

Istiqlool tufayli o'z mustaqil taraqqiyot yo'lidan borayotgan Respublikamiz yoshlarini yangicha ijtimoiy muhitga tayyorlash, davr ruhida tarbiyalash - shu kunning dolzarb va ustuvor vazifalaridan biridir. Hozirgi kunda Respublikamizda amalga oshirilayotgan islohotlarning taqdiri yoshlarning ma'naviy qiyofasiga, shaxsiy barkamolligiga bog'liq. Bu vazifalarni amalga oshirish insoniy o'zaro munosabatlarda demokratik tamoyillarni ongga to'la singdirishni taqozo etadi.

Mavzuning dolzarbligi: Insonlar o'rtasidagi ijtimoiy munosabatlar Sharqda o'ziga xos va har bir millat psixologiyasiga mos holda shakllantirishdir. Jamiyatning yangilanishi davrida inson ma'naviyati va ruhiyatida ro'y berayotgan o'zgarishlarning psixologik tabiatini anglashga yordam beradi.

Bitiruv malakaviy ishining asosiy maqsadi huquq yo'nalishidagi vazifalarni hal etishda bo'lg'usi mutaxassislarni yuridik – psixologik tayyorgarligini yaxshilashdan iborat.

Yurist psixologiyasini egallash uchun quyidagilarga e'tiborni qaratish muhimdir:

- bo'lg'usi huquqshunoo mutaxassislarni professional psixologik bilimlar bilan qurollantirish;
- kasbiy vazifalarni hal etishda olingan nazariy bilimlardan mohirona foydalanish va ularni hayotga, amaliyotga tadbiq etish;
- huquq mutaxassisligiga xos zamonaviy kasbiy zarur bo'lgan fazilatlarni har tomonlama shakllantirish;
- huquq yo'nalishida ta'lim olayotgan bo'lg'usi mutaxassislarga kerakli kasbiy qobiliyatlarni har tomonlama rivojlantirish;
- kasbiy sezgirlik, xotira, tafakkur, fuqarolar bilan muloqotda bo'lish va psixologik aloqa o'rnatish mahoratiga ega bo'lishdan iborat.

Yuridik psixologiyada sud psixologik ekspertiza usullari yordamida ko'plab kerakli ma'lumotlarni yig'ish mumkin bo'ladi.

Sud-psixologik ekspertizasi turlariga quyidagi usullar kiradi:

- jinoiy ishga taalluqli bo'lgan ma'lumotlarni psixologik talqin qilish;
- anamnez (biografik) usuli;
- kuzatish va tabiiy eksperiment;
- shaxsni individual - psixologik xususiyatlarini o'rganish;
- psixoanaliz;
- anketalardan foydalanish;
- suhbat;
- kompyuter diagnostika usuli (test orqali psixogramma tuzish).

Xulosa qilib aytganda, turli psixologik va yurisprudensiyaga oid usullar tizimli yondoshish orqali faoliyat jarayonining asosiy psixologik qonuniyatlari, o'zaro hamkorlikni chuqur talqin qilish, shaxs strukturasi va huquqiy normalarning tizimini o'rganish va ularga aniq tavsif berishga yordam beradi.

Bitiruv malakaviy ishining metodologik asosi:

Ong va faoliyat birligi prinsipi, faoliyatning rivojlanish tamoyili, «Talim to'g'risidagi qonun», «Kadrlar tayyorlash milliy dasturi», Prezidentimiz g'oyalari, fanda yaratilgan qonuniyatlar.

Tadqiqot metodi: So'roq-suxbat, anketa.

Bitiruv malakaviy ishining predmeti: Xuquqni qo'llovchi faoliyatning psixik qonuniyatlarini o'rganish va yuridik kasb-ning kasbgrammalariga oid psixologik asoslarini ishlab chiqish, kasbiy mahorat ko'nikma va malakalarni tarbiyalash, kadrlarni tan-lab olish va joylashtirish, huquqni muhofaza qilish faoliyatini boshqarish, kasbiy yo'nalish, kasbiy saralash, huquqni muhofaza qi-luvchi organlari xodimlarining shaxsini tarbiyalash va shakllanti-rish, kasbiy buzilish va uni oldini olish, ishchi joy va vaqtni tashkillashtirish kabi masalalarni o'rganishga qaratilgan.

Bitiruv malakaviy ishining obekti: Andijon viloyati Jalaquduq tumanidagi Ichki ishlar bo'limi xodimlari.

Bitiruv malakaviy ishining ilmiy farazi:

1. Yuqoridagi axloqiy sifatlar asosiy tamoyillar tarzida yurist faoliyatining mazmuni va xulqining strategiyasini tashkil qiladi.
2. Yurist faoliyati bilan mashg'ul shaxsning etika va madaniyati doimo "yuqorida" bo'lishi lozim.
3. Kasbiy axloq sud etikasining rivojlanish darajasi ham nazarda tutiladi.
4. Inson huquqlariga rioya qilish va ularni muhofaza qilishi;
5. Aybdorlik prezumpsiyasi tamoyiliga rioya qilish va h.k.dir.

Yurist faoliyatining o'rganishni maqsadi: jinoyatchilikning oldini olish, uni tugatish, fuqarolarga huquqiy bilimlar berish asosida fanni rivojlantirishdir. Agar har bir fuqaro o'z haq - huquqini bilsa, dunyoqarashi keng bo'lsa, tarbiyalangan bo'lsagina jinoyatchilik kamayadi hamda uning oldi olinadi.

Yuridik psixologiya o'z oldiga bir necha vazifalarni belgilab olgan. Bular quyidagilardir:

- jinoyatchilikning oldini olish;
- jinoyatchilikni batamom tugatish;
- yuridik shaxslar o'rtasida muloqot madaniyatini shakllantirish;
- fuqarolarning huquqiy bilimdonligini rivojlantirish;
- inson omilini birinchi o'ringa olib chiqish.

Yuqoridagi vazifalar asosida ish olib borilsa respublikamizni rivojlangan davlatlar qatoriga yanada tezroq olib chiqish mumkin.

Bitiruv malakaviy ishining nazariy va amaliy ahamiyati: Tadqiqotimiz natijalaridan shu narsa malumki, yurist faoliyatini talim tizimida keng taxlil qilish va yoritish dolzarbdir. Chunki, jamiyat taraqqiyotida insonlarning psixik rivojlanishida xuquqiy tarbiyaning oʻrni ahamiyatli. Yuridik faoliyatning metodologik va nazariy asoslarini oʻrganish, nazariy tadqiqotning uslubiyoti va usullarini ishlab chiqish va ularni boshqa fanlarning uslubiyoti bilan taqqoslash va moslashtirish natijasida quyidagini amalga oshirish mumkin:

1) predmetning tizimiy elementlarini oʻrganish: yurist shaxsi; uning faoliyati; huquqiy va nohuquqiy hulqi; qonunbuzar va qonunga rioya qilgan shaxslar; qonunbuzarlarning ijtimoiy huquqiy psixologiyasi; jinoiy ishni olib borishning psixologik xususiyatlari, qonunbuzarlar profilaktikasi...;

2) yurist- amaliyotchilar uchun huquq ishlariga oid va amaliyotni yanada yaxshilash uchun yuristlar jamoasini mustahkamlash va ularning faoliyatlarini ragʻbatlantirishga qaratilgan tavsiyalar ishlab chiqish, kasbiy yoʻnalish va kasb tanlashga oid uslubiyotlar ishlab chiqish;

3) “yuridik psixologiya” fanini nazariy va metodologik jihatdan taʼminlash;

4) amaliyotni maxsus psixologik bilimlar bilan taʼminlash, sud psixik ekspertizasiga oid nazariya va uslubiyotni ishlab chiqish, yurisprudensiya jarayonida mutaxassis - psixologning ishtirokini taʼminlash.

Bitiruv malakaviy ishining tuzilishi:

Kirish(mavzuning dolzarbligi), 2 bob, 6 paragraf, xulosa, tavsiya va adabiyotlar roʻyxatidan iborat.

I-BOB. Yuridik mehnat psixologiyasi

I.1 Yuridik mehnat psixologiyasining asosiy vazifa va qonuniyatlari.

Yuridik amaliyotda shaxslar bir-birlari bilan muloqotga kirishar ekan, ularning asosiy ko'zlagan maqsadlaridan biri-o'zaro bir-birlariga ta'sir ko'rsatish, ya'ni fikr-g'oyalarga ko'ndirish, harakatga chorlash, ustanovkalarni o'zgartirish va yaxshi taassurot qoldirishdir. Psixologik ta'sir-bu turli vositalar yordamida insonlarning fikrlari, hissiyotlari va hatti-harakatlariga ta'sir ko'rsata olishdir.

Psixologiyada psixologik ta'sirning professor V.Karimovanning fikricha, uch vositasi farqlanadi:

1. Verbal ta'sir - bu so'z va nutqimiz orqali ko'rsatadigan ta'sirimiz. Asosiy vosita bu yerda so'zlardir. Nutq-bu so'zlashuv, o'zaro muloqot jarayoni bo'lib, uning vositasi-so'zlar hisoblanadi. Monologik nutqda ham, dialogik nutqda ham kishi o'zidagi barcha so'zlar zaxirasidan foydalanib, eng ta'sirchan so'zlarni topib, sherigiga ta'sir ko'rsatishni xohlaydi.

2. Paralingvistik ta'sir-bu nutqning atrofidagi nutqni bezovchi, uni ko'chaytiruvchi yoki susaytiruvchi omillar. Bunga nutqning baland yoki past tovushda ifodalanayotganligi, tovushlar, to'xtashlar, duduqlanish, yo'tal, til bilan amalga oshiriladigan harakatlar, nidolar kiradi. Shunga qarab, do'stimiz bizga biror narsani va'da berayotgan bo'lsa, biz uning qay darajada samimiyligini bilib olamiz.

3. Noverbal ta'sirning ma'nosi "nutqsiz"dir. Bunga suhbatdoshlarning fazoda bir-birlariga nisbatan tutgan o'rinlari, holatlari (yaqin, uzoq, intim), qiliqlari, mimika, pantomimika, qarashlar, bir-birini bevosita his qilishlar, tashqi qiyofa, undan chiqayotgan turli signallar (shovqin, hidlar) kiradi. Ularning barchasi muloqot jarayonini yanada ko'chaytirib, suhbatdoshlarning bir-birlarini yaxshiroq bilib olishlariga yordam beradi. Amerikalik olim Megrabyan formulasiga ko'ra, birinchi marta ko'rishib turgan suhbatdoshlardagi taassurotlarning ijobiy bo'lishiga gapirgan gaplari 7 foiz, paralingvistik omillar 38 foiz va noverbal harakatlar 58 foizgacha ta'sir qilarkan. Muloqotning qanday kechishi va kimning ko'proq ta'sirga ega bo'lishi sheriklarning rollariga bog'liq. Ta'sirning tashabbuskorida ataylab ta'sir ko'rsatish maqsadi bo'ladi va u bu maqsadni amalga oshirish uchun barcha yuqorida ta'kidlangan vositalardan foydalanadi. Masalan, rahbar xodimini unga ishi tushib chaqirsa, xodimini o'rnidan turib kutib oladi, quyuq so'rashadi, keyin maqsadga o'tadi. Ta'sirning adresati-ta'sir yo'naltirilgan shaxs. Lekin tashabbuskorning suhbatga tayyorgarligi yaxshi bo'lmasa yoki adresat tajribaliroq sherik bo'lsa, u tashabbusni o'z qo'liga olishi va ta'sir kuchini qayta egasiga qaytarishi mumkin bo'ladi.

Professional huquqshunoslik faoliyati –davlat arbobi faoliyati demakdir. Huquqshunoslik kasb-korlarining ko‘pchiligi (prokuror, sudya, tergovchi, tezkor xodimlar) mehnati hukmini o‘tkazishning huquq va majburiyatlari kafolatlanishini taqozo etadi.

Yurist mehnati psixologiyasining asosiy vazifasi – kasb-kor taqozo etadigan talablarning ratsional muvozanatini aniqlashdan iborat. Bu murakkab va mas’uliyatli mehnat huquqshunos xodimlariga katta talablar qo‘yadi. Yurist kasb-korlarining o‘ziga xos xususiyati –tashkiliy faoliyatning katta o‘rin tutishidan iborat bulib, u ikkita asosiy jihatga ega:

- 1) ish kuni, ish haftasi mobaynida o‘z ishini rejalashtirish, vaqti-soati belgilanmagan ish kuni sharoitlarida huquqbuzarlik yoki jinoiy ishga oid surishtiruv va tergov ishlarini tashkil qilish,
- 2) boshqa mansabdagi hamkasblar, boshqa huquq - tartibot idoralari bilan hamkorlikda ishni tashkil etish shu jumladandir. Jinoiy ishni ochish, sud qilish mobaynida adolatli hukm chiqarish – ijodiy jarayon bo‘lib, tergovchi, prokuror, sudya, advokatlardan sezgirlikni, diqqat - e’tiborni, insonparvarlikni, inson ichki dunyosiga yo‘l topa bilishni talab etadi.

Huquqshunoslik faoliyati turlarini tizimlashtirgan holda o‘rganish mobaynida ikki guruhga: asosiy va yordamchi guruhlariga ajratib olinadi. Faoliyatning asosiy turlari tergov va sudlov idoralarining bevosita maqsadga erishishini ko‘zlaydi. Ular sirasiga: vakolatli, konstruktiv hamda axloq tarbiyalash guruhlarini kiritish mumkin. Yordamchi turlari (aloqa, tashkiliy, ta’kidiy) asosiy maqsadlar to‘la ro‘yobga chiqarilishiga yordam beradi.

Yurist mehnatining yuksak samaradorligi – uning shaxs sifatidagi fazilatlarini alohida e’tiborga olish hamda shaxsiy fazilatlarini ushbu kasb talablariga javob berishini to‘g‘ri baholashni taqozo etadi. Yurist faoliyatining asosiy jihatlarini, shuningdek unda ko‘zga tashlanadigan insoniy sifatlarni kompleks tarzda aks ettiruvchi yuridik professiogrammalarini yaratish, ushbu faoliyat psixologik tahlilining asosiy talablaridandir.

Professiogrammalar quyidagilarni o‘z ichiga oladi:

1. Ijtimoiy faoliyat. O‘zlariga topshirilgan uchastkada huquqbuzarlik va jinoyatchilikka qarshi kurashning tashkilotchilari bo‘lgan tergovchi, tezkor xodim, mehnat-axloq tuzatish muassasasi tarbiyachisi, prokuror faoliyatidagi siyosiy omil ijtimoiy faoliyat mazmunini tashkil etadi. Bu faoliyat jinoyatchilikning oldini olishga qaratilgan profilaktik tadbirlar, huquqiy targ‘ibot, jinoyatchini qayta tarbiyalashda uning xulq-atvorini ijtimoiy talablarning me’yoriga bo‘ysundirish kabilardan iborat.
2. Surishtiruv faoliyati kasb-korga oid masalalarni hal etish uchun zarur bo‘lgan ilk ma’lumotlarni yig‘ishni bildiradi. Tergovchi, tezkor xodim sudya professiogrammalarida bu faoliyatning qiyosiy vazni ayniqsa yuqoridir.

1. Rekonstruktiv faoliyat. Bu jinoiy ish bo'yicha jami to'plangan ma'lumotlarning joriy va yakuniy tahlili bo'lib, uning sintezi va maxsus bilimlarga tayangan holda ishchi versiyalarini ilgari surish demakdir. Ishni rejalashtirish ham rekonstruktiv faoliyatning natijasi bo'lib hisoblanadi.

2. Kommunikativ (aloqaga kirishish) faoliyati muomala jarayonida zarur ma'lumotlarni olishni anglatadi. Bu faoliyat ayniqsa, tergov mobaynida, advokatlar, tezkor xodimlar ishida katta ahamiyat kasb etadi.

3. Tashkiliy faoliyat ishchi versiyalar va rejalarni amalga oshirish chog'idagi irodaviy xatti-harakatlardan iboratdir. U ikkita omilga bo'linadi: professional masalani hal etish uchun o'zini va odamlarni safarbar etish.

4. Dalillash faoliyati – ish bo'yicha olingan barcha ma'lumotlarni qonunda ko'zda tutilgan tarzda, maxsus shaklda bayon etishni bildiradi.

Huquqshunos xodimning professiogrammasini tahlil qilishni tergovchi kasbidan boshlash maqsadga muvofiq. Chunki u tergov xatti -harakatlarining tashkilotchisi bo'lib, ma'suliyatli qarorlarni qabul qiladi, ularni bajarilishiga erishadi. Amaliy ish undan hamisha diqqat -e'tiborlilik, aniqlik va sarishtalikni talab etadi. Tergovchi madaniyatli bo'lishi lozim. U o'zida aniq maqsadga yo'naltiriladigan ixtiyoriy diqqatni tarbiyalashi kerak. Bu o'z ishiga nechog'li qiziqishning o'lchovlaridan biridir. Tergovchida kuzatuvchanlik qobiliyati kuchli shakllangan bo'lishi lozim. Bu fazilat tergovchiga ish jarayonida asqotadi. Psixologik kuzatuvchanlik inson xulq-atvori, xatti-harakatlarini oldindan ko'ra bilish bo'lib, tergovchi zarur paytlarda shuning yordamida kuzatilayotgan kishini boshqarish imkoniga ega bo'ladi. Kuzatuvchanlik turmush tajribasida shakllanadi, professional faoliyat mobaynida takomillashadi. Yuristga xos bo'lgan fazilatlardan yana biri kommunikativ (muloqotga kirishuvchanlik) soha bo'lib hisoblanadi. Tergovchi va so'roq qilinayotgan shaxsning bir-birlarini tushunishlari, anglashlari ular o'rtasidagi psixologik munosabat qay darajada ekanligiga bog'liq.

Bundan tashqari sudya faoliyati ham muhim ahamiyat kasb etadi. Sudya ishining keng qamrovliligi yuqori darajadagi umumiy va huquqiy topqirlikni, xilma - xil vaziyatlarda to'g'ri qaror chiqara bilishni talab etadi. Sudyaning xulq - atvori, qiyofasi sud zalida yig'ilganlarda hurmat-ehтиrom uyg'otishi, uning murakkab ishlarini, kishilar taqdirini hal etish borasidagi huquqi, qobiliyati, malakasiga zarracha shubha tug'dirmasligi zarur. Sudya shaxsining muloqotga kirishishga oid kasbiy fazilatlari ana shu xususiyatlarni namoyon eta bilishida ko'zga tashlanadi.

I.2 Uyushgan jinoyatchilik va jinoiy guruhlar psixologiyasi

Huquqni himoya qiluvchi organlar sohasida inson faoliyatini tadqiq etish uchun psixologik bilimlarning o'ri juda katta. Insonni, uning shaxsini, asosiy psixologik holatlarni, jarayonlarni, (ehtiyoj, motiv, maqsad, temperament, ustanovka, ijtimoiy yo'nalishi va shaxsining tavsifini) chuqur o'rganish yuridik faoliyatda muhimdir

Jinoyatchi shaxsini o'rganish uchun avvalo jinoyatchilik bilan kurashish zarur. Psixologiya shaxs immunitet mexanizmini kriminal vaziyatlarda o'rganadi va jinoyatchilikning oldini olishni asosiy maqsad qilib qo'yadi.

Kriminal psixologiya faqat zo'ravonlik asosidagi jinoyatlarnigina emas, balki jinoiy guruhlar tuzilishini psixologik xususiyatlarini ham o'rganadi. Juda ko'pgina jinoyatlar qonunni buzishdan kelib chiqadi. Kriminologiya, sotsiologiya va psixologiya uchun insonni ko'proq dinamik, genetik tomondan o'rganish yaxshi natija beradi. Qonun buzilishi sabablarini o'rganishda ko'proq bizni faqatgina jinoyatchining xatti-harakatlari emas, balki ayrim voqealar qiziqtiradi. Shaxs shakllanishi jarayonini kriminalologiya va qonunni qiziqitirmaydi, chunki buni pedagogika, psixologiya, sotsiologiya kabi fanlar o'rganadi.? Nima uchun kishi jinoyatga qo'l uradi? Jinoyat sodir etayotgandi nimaga o'zini to'xtatib qololmaydi?

Shaxs jinoyat sodir etayotganda uning ichki psixofiziologik holatlari muhim rol o'ynaydi. Unda ichki va tashqi tormozlanish mavjud. Jinoyat sodir etilayotganda bizdagi emotsiyalar qo'zg'alish holatiga keladi. Ya'ni butun his-tuyg'ularimiz ongsizlik holatiga o'tib ketadi. Jinoyatning kelib chiqishida bir necha sabablar, motivlar paydo bo'ladi. Inson qanchalik tarbiyalangan bo'lsa emotsiyalarini boshqara oladi. Lekin ayrim hollarda chegaradan chiqib ketish, ya'ni ongsizlik holatiga o'tib ketish paytlari ham bo'ladi. Xalqimizda «jahl kelsa aql qochadi» deb bekorga aytilmagan. Jahl kelganla fikr torayadi, miyada jamiyat qonun-qoidalariga to'g'ri kelmaydigan tasavvur va tushunchalar paydo bo'ladi.

Jamiyat qonun - qoidalariga to'g'ri kelmaydigan tasavvurlar va tushunchalar kishining asab tizimiga, temperamentiga, xarakteriga kuchli ta'sir qiladi. Shaxsning ijtimoiy va biologik xususiyatlari haqidagi umumiy ma'lumotlar muhim masalalarni, ya'ni jinoyatchilikni ochishga yordam bermaydi. Buning uchun kishining imkoniyatlari, ehtiyojlari, bilish jarayonlari, tarbiyalanganlik darajasi, jinoyatni keltirib chiqaruvchi shart-sharoitlarini ham hisobga olish zarur. Demak, jinoyatchilik o'z-o'zidan kelib chiqmaydi. Biologik va sotsial imkoniyatlarni shaxs shakllanishiga qanchalik bog'liqligini hisobga olish muhimdir.

F. G. Uglov tadqiqotlarining ko'rsatishicha, 1500 nafar taraqqiyotdan orqada qolgan bolalarning 2 foizi narkotik iste'mol qilmaydigan onalardan, 9 foizi alkogol iste'mol qiluvchi onalardan, 74 foizini naroktik moddalarni ko'p iste'mol qiluvchi onalardan tug'ilganligi

aniqlangan. Jinoyatchilik irsiyat orqali o'tmaydi. Bola onasining qornidan jinoyatchi bo'lib tug'ilmaydi. Jinoyatchilik atrofdagi muhit, munosabatlar (ota - ona, tengdoshlar, kattalar bilan bo'ladigan) ta'lim - tarbiya ta'siridan kelib chiqishi mumkin. Uning paydo bo'lishiga qiziqish, ehtiyoj, irodaning pastligi ham sabab bo'ladi.

Qonunbuzarlik sotsial muhit ta'siridan kelib chiqadi. O'smirlarda bu hol ko'p kuzatiladi, chunki ular balog'at yoshiga o'tayotgan chog'larida fiziologik va psixologik o'zgarishlarni boshlaridan kechiradilar. O'z-o'zini anglash, o'z-o'zini tarbiyalash jarayoni hali to'la shakllanmagan bo'ladi. Bundan tashqari kattalarda ham qonunbuzarlik holatlari, xatti-harakatlari ham kuzatiladi. Masalan, algokol ichimliklarini ko'p iste'mol qiladigan, oilaviy sharoiti og'ir bo'lgan kishilarda, affekt (kuchli ruhiy qo'zg'alish, shuuriy holat) holatida qonunbuzarlik jinoiy xatti-harakatlarga sababchi bo'lishi mumkin. Bunday holatlarni aniqlashda tergovchi juda kuchli asoslangan dalillarga tayanishi lozim.

Bizni qonunbuzarlikning sabablari qiziqtirar ekan, qonun bilan ta'qiqlangan jinoiy xatti-harakatni vujudga keltiruvchi faoliyatnigina emas, balki uning muqaddimasidagi ayrim faoliyatlarni ham e'tiborga olish lozim. Kishi xulq - atvoriga salbiy ta'sir ko'rsatuvchi sabablarga quyidagilar ham kiradi:

- Biologik ehtiyojlar patologiyasi ko'p hollarda jinoiy buzqlik va jinsiy jinoyatlarni keltirib chiqaradi.
- Asabiy-ruhiy kasalliklar asab tizimi qo'zg'aluvchanligini kuchaytirib, noadekvat aks ta'siriga olib keladi, javobgarlikni qiyinlashtiradi.
- Avloddan avlodga o'tuvchi tug'ma kasalliklar, ayniqsa ichkilikbozlik tufayli zo'rayib ketadi, aqli zaif bolalarning 40 foizi mana shu kasallik oqibatidandir.
- Psixofiziologik zo'riqish, ziddiyatli vaziyatlar, atrof muhitda kimyoviy tarkibning o'zgarishi, turli psixologik, allergik va zaharlanish kasalliklariga sabab bo'lib, qo'shimcha kriminal omillarga aylanadi.

Jinoyatlarni keltirib chiqaradigan sababiy turkumlardan biri odamlar ma'naviy va moddiy ehtiyojlarning qondirilmasligi bo'lishi ham mumkin.

Jinoyatchilikning ijtimoiy determinatsiyasi mexanizmi shaxsiy o'rganishga ikki xil: ijtimoiy-tipologik va ijtimoiy rol yondoshuvi taqozo etadi. Ijtimoiy-psixologik yondoshishda shaxsning ijtimoiy nuqtai nafari, shunga muvofiq ijtimoiy normalari, ularni idrok etish va ijro etishni tahlil qilinadi. Ikkinchi holatda shaxs ijtimoiy munosabatlarining faol arbobi, sub'ekti sifatida ko'rib chiqiladi.

Jinoyatchi shaxsini kriminal psixologiya o'rganadi. Bu fanning asosiy masalalaridan biri – shaxsning ichki, ruhiy sabablarini ajratib ko'rsatishdan iborat. Chunki avvalo shaxsning

motivlashadigan ichki sabablari tashqi muhitning ayrim omillari bilan o'zaro qo'shilib, shaxs uchun kriminal vaziyatni yaratishi mumkin.

Jinoyatlarning har xil turlari (qasddan, zo'rvonlik bilan, ehtiyotsizlik oqibatida) uchun huquqbuzardagi turlicha soxta motivlari xarakterli bo'lib hisoblanadi. Moddiy – tovar qadriyatlari va xizmatlarga ehtiyojlar bilan ularni ro'yobga chiqarish o'rtasidagi uzilish ijtimoiy salbiy oqibatlarni keltirib chiqaradi. Jinoiy xulq-atvorning ikki shakli mavjud: moddiy va maishiy, madaniy xizmat ehtiyojlari. Yetishmovchilik jinoiy faoliyat o'sishiga shart-sharoit yaratadi. Talab va taklif o'rtasidagi nomutanosiblikdan turli-tuman "ishbilarmonlar" foydalanadi, qonunga xilof operatsiyalar orqali o'z to'lov qobiliyatini oshirib boradi. Ehtiyojlarni qondirishdagi yetishmovchilik firibgarlik, poraxo'rlik, korrupsiya, narkobiznesning tegirmoniga suv quyadi.

Tergovchi va sud tomonidan ayblanuvchi shaxsining psixologik xususiyatlarini to'laqonli va chuqur o'rganish bir qator dolzarb masalalarni hal etishga ko'maklashadi: jumladan, sodir etilgan jinoyatni to'g'ri klassifikatsiyalash, taktik usullarni to'g'ri tanlash, huquqbuzarga nisbatan tarbiyaviy ta'sir o'tkazishni birinchi so'roqdan boshlash, ayblanuvchining psixologik xususiyatlarini chuqur o'rganish kabilar.

Kriminal psixologiyada jinoyatchi shaxsini o'rganish dasturi katta ahamiyatga ega. Unda quyidagi belgilarni ko'rsatib o'tish kerak:

1. Ijtimoiy – demografik - bu guruh jins, yosh, ma'lumot, siyosiy e'tiqod, ijtimoiy mavqe, mutaxassislik, qanday rolga mansublik kabilar.
2. Ijtimoiy – psixologik - bu guruh bo'yicha shaxsning aql - idroki, irodasi, ma'naviy fazilatlari, xarakteriga xos xususiyatlar bilan baholanadi.
3. Psixofiziologik – bu guruhga temperament tiplari kiritiladi.

Uyushgan jinoyatchilik ijtimoiy o'ta xavfli bo'lib, jinoyatchilikning «cho'qqisi» ni anglatadi. U odatdagi jinoiy sheriklarlan farqli o'laroq jinoiy hamjamiyat tarzidagi faoliyatni bildiradi.

Uyushgan jinoyatchilik – barqaror hodisa bo'lib, odatdagi jinoyatning oldini olish – profilaktika tadbirlariga bo'ysunavermaydi, chunki jinoiy jamoa ishtirokchilarining kriminogen bog'liqligi doimiy o'zaro ta'sir bilan kuchaytirib turiladi, guruh a'zolaridan birining jinoiy muhitdan chetga chiqishiga urinishi esa shafqatsizlik bilan o'ch olinishiga sabab bo'ladi.

Uyushgan jinoyatchilik keng qamrovliligi bilan ajralib turadi. Ko'pincha butun boshli xududlarni, xalq xo'jaligi tarmoqlarini o'z to'ri bilan qamrab olib, jinoyatchilarning huquq - tartibot idoralaridagi ayrim korrupsiyaga moyil xodimlari, poraxo'r, mansabini suiste'mol qilish, katta miqdorda davlat va jamoa mulkini o'zlashtirish, qonunga xilof kontrabanda-valyuta operatsiyalari yordamida jamiyat taraqqiyotiga g'ov soladi.

Jinoiy hamjamiyat a'zosi bo'lib qolgach, ko'pchilik jamoatchilar faollashib ketadi, chunki ularning faoliyati guruh «obro'-e'tibori» bilan quvvatlanib turiladi. Uyushgan jinoyatchilikni faqat ungagina xos uchta belgilar xarakterlab beriladi:

1. Barqaror tashkiliy tizim uzoq muddat davomida muntazam jinoiy faoliyat bilan shug'ullanishini ko'zda tutib tashkil qilinadi, jinoiy hamjamiyat a'zolari o'rtasida mavqe zinapoyalari amal qiladi, unga ko'ra «quyi» mavqedagi shaxs yuqoriroq mavqeni egallaganga so'zsiz bo'ysunadi, rollar va faoliyat chegaralari qat'iy taqsimlab qo'yiladi, o'ziga xos «mehnat taqsimoti» ixtisoslashuvi hukm suradi, shtat ro'yxatiga monand tarzda «amallar» belgilab qo'yiladi - qo'rboshi (ba'zan bir necha guruhlarining qo'rboshilari) jinoiy «kassa» xazinachisi, aloqachilar, qora ishni bajaradigan jangarilar, «rahbar»ga - qo'rboshiga so'zsiz itoat etadilar. Ayrim jinoiy to'dalar o'z razvedkalari va kontrarazvedkalarini, ba'zan esa hatto o'z sudlarini tuzadilar.

Jinoiy guruh a'zolari bir-biriga ipsiz bog'langan, «qondosh», shu jumladan qurbonlarning to'kilgan qoni evaziga «qondosh» bo'lib qoladilar. Ko'pchilik jinoiy guruh a'zolari «qasam» ichadilar, har qanday sharoitda ham «sheriklari» va sodir etgan jinoyatlarini sir saqlashga so'z beradilar. Bu ularning «axloq kodeksi» dir.

2. Jinoiy guruh garchi surbetligi va murakkab tayyorgarligiga ko'ra pishiq-puxta faqat bitta jinoyatni (masalan bankni o'marish) sodir etish uchungina emas, balki uzoq muddat, ba'zan yillar mobaynida jinoiy faoliyat bilan shug'ullanish maqsadida tarkib topadi.
3. Uyushgan jinoyatchilikning uchinchi belgisi –korruptsiyadir, boshqacha qilib aytganda, jinoiy elementlarning davlat apparati hamda huquq-tartibot idoralari bilan chatishib ketishlaridan iboratdir.

Jinoyatchi guruhlarining jinoiy harakatlarini tahlil qilganda quyidagi omillarga e'tibor berish kerak:

1. Ushbu guruhga uyushish sabablari:
 - «birlashmasdan» jinoyat sodir etishning imkoniyati yo'qligi;
 - jinoiy maqsadlarning uyg'unligi;
 - shaxsiy bir-birini yoqtirish;
 - xulq-atvorning, e'tiqodlarning monandligi, huquqiy ongdagi umumiy norasolik.
2. Jinoiy guruhda rollarning taqsimlanishi:
 - iroda sifatleri;
 - tashkilotchilik qobiliyatlari;
 - yetakchilarning obro'si va tashabbusi;
 - ikkinchi darajali a'zolarining irodasizligi, moslashuvchanligi, ichkilikka ruju qo'yish.
3. Guruh ichidagi to'qnashuvlar va ziddiyatlar.


Uyushgan jinoyiy tizimlar zulukdek jamiyat qonini so'radi. Yashirin iqtisod ularning moliyaviy asosidir.

Uyushgan jinoyatchilikning ko'zga ko'rinadigan xususiyati asosiy jinoyiy guruhni tuzishdan iborat bo'lib, bu guruh o'z darajadagi tartib va intizomga solish va ierarxik (har kim o'z joyini o'zi bilishi, boshqa narsalarga aralashmasligi) tizimini tushzishdan iborat.

Bu ierarxik tizim 3 ta bo'limdan tashkil topgan:

- boshqarish;
- bo'ysunish;
- jinoyatlar orasida funksiyalar (vazifalar) ni taqsimlash kabilardir.

Uyushgan jinoyatchilikning tizimi




Kriminal psixologiya fanining maxsus bo'limida uyushgan jinoyatchilikning tashkil topishi, u yerda rollarning taqsimlanishi va ularning psixologik mexanizmini o'rganishga batafsil to'xtal

O'z vaqtida ochilmagan va jazoga tortilmagan jinoyatchi shaxs juda xavfli bo'lib, u boshqalarga ta'sir ko'rsata oladi va shu tu-fayli jinoyiy yo'l orqali boshqa o'ziga mustahkam bo'lmagan odam-larni shakllantirishga harakat qiladi va uyushgan jinoyatchilikni tuzishga bel bog'laydi.

Ayrim hollarda jinoyatchi shaxs yakka o'zi harakatlar qilishga qurbi yetmaydi. Buning uchun unga uyushganlik darajasi kerak bo'ladi.

Jinoyiy guruhning bo'limlarini quyidagi shaklda ko'rishimiz mumkin:



butun guruhni, yoki uning alohida ishtirokchilarini boshqaruvchi shaxs;

mas'uliyatli joydagi ijrochi;
ikkinchi darajali ijrochi;

oppozitsiya, guruhning "bo'sh halqasisi";
irodali oppozitsiya, guruhga qarshi xarakat yurutishimumkin.

Jamiyatda boshliq (etakchi) mavqeini o'rnatish juda ham muhim va murakkab. Chunki uni (etakchi) hamma tan olishi va unga bo'ysu-nishlari lozim.

Jinoiy guruhni shakllanishida quydagi omillar rol o'ynaydi:

- a) jinoyatni bir o'zi sodir qila olmasligi;
- b) jinoiy ishlarga yo'naltirilgan qiziqishlarning birligi;
- v) o'zaro hayrixoxlik, samiymiligi;
- g) hulqi, ishonchlari, huquqiy ongining o'xshashliklari (kamchiliklari).

Jinoiy guruhlar quyidagi belgilarga ega:

1. uyushganligi (qat'iy ierarxiya, tartib-qoida, pastki bo'g'in yuqori bo'g'inga bo'ysunishini inobatga olish);
2. mustahkamligi (guruhning barbot bo'lishidan so'ng qayta tiklanishi);
3. birlikligi (motivlarining birligi, bir maqsadga intilishi);
4. muhofazalanganligi (muhofazaning borligi, aholiga psixik va fiziologik ta'sir ko'rsatishi).

Uyushganlik darajasi bo'yicha jinoiy guruhlar quydagilarga bo'linadilar:

- uyushgan jinoiy guruhlar;
- jinoiy tashkilotlar;
- jinoiy jamoalar.

I.3 Sud - psixologik ekspertizasi

Jinoyatni ochishda sud ekspertizalarining ahamiyati katta. Jumladan, sud - psixologik ekspertizasi ham jinoyatlarni ochishga, jinoyatchining ruhiyotini aniqlashga, adolatli jazo tayinlashda katta yordam beradi. Sud-psixologik ekspertizasi quyidagi holatlarda o'tkaziladi:

- O'limning sabablari va tan jarohatlarining xarakterini aniqlash maqsadida;
- Gumondor yoki ayblanuvchilarning jinoiy ish qo'zg'atilgan paytda o'z xatti - harakatlari uchun javob bera olish - olmasligi yoki idora qila olish - olmasligiga, shuningdek, eng asosiysi ruhiy sog'lomligiga shubha tug'ilganida, ularning psixik holatlarini aniqlash maqsadida;
- Guvoh yoki jabrlanuvchining ishga aloqador shart - sharoitlarini to'g'ri idrok qilish hamda ko'rgazma berish qobiliyatlariga shubha tug'ilgan kezlarda ularning ruhiy va jismoniy sog'lomligini aniqlash uchun;
- Ish uchun ahamiyatli bo'lgan, lekin tegishli hujjatlar bo'lmagan hollarda ayblanuvchi, gumondor va jabrlanuvchining necha yoshga kirganini aniqlash uchun ekspertiza o'tkazilishi shart bo'lib hisoblanadi.

Qonunda ekspertizalarni tegishli mutaxassislar – shifokor, psixolog, psixiatrlarni taklif qilib o'tkazish belgilab qo'yilgan.

Ko'pchilik hollarda ekspertiza o'tkazish zarurati tergovchining ixtiyori bilan hal etiladi, bu masalani hal qilish uning vakolatiga kiradi. Ekspertizaning quyidagi turlari farqlanadi:

- Sud - tibbiy ekspertizasi;
- Sud - psixiatriya ekspertizasi;
- Sud - psixologiya ekspertizasi;
- Kompleks ekspertizalar.

Sud - tibbiy ekspertizasi jinoyatning barcha turlarida o'tkaziladi. Jumladan, baxtsiz hodisalar, ehtiyotsizlik oqibatidan kelib chiqadigan jinoyatlar, tasodifiy yoki qasddan amalga oshiriladigan jinoyatlar kelib chiqqada sud - tibbiy ekspertizasi o'tkaziladi. Sud - tibbiy ekspertizasi orqali jabrlanuvchining olgan tan jarohatlari, ularning darajasi, kelib chiqadigan oqibatlari aniqlanadi.

Sud - psixiatriya ekspertizasi ham barcha turdagi jinoyatlar kelib chiqqanda o'tkaziladi. Bunday ekspertiza orqali jinoyatchi, jabrlanuvchilarning jismoniy sog'lomligi, aqliy jihatdan aqli rasoligi, ko'rgazma berish uchun o'z xatti - harakatlarini idora qila olish-qilmasligi, sud zalida o'zini to'g'ri tuta olishi, savollarga to'g'ri, adolatli javob bera olishi yoki olmasligi aniqlanadi. Odatda sud - psixiatriya ekspertizasi sud - psixologik ekspertizasini o'tkazishdan avval olib

boriladi va gumondor, jinoyatchi shaxsiga hatti - harakatlariga javob bera olishi yoki olmasligi to'g'risida xulosa beriladi.

Sud - psixologik ekspertizasi tergov jarayonida jinoyatchining jinoiy hatti - harakatlari aniq bo'lmagan hollarda, shuningdek, balog'at yoshidagi o'smirlar jinoyatga qo'l urgan paytlarida, kattalarning balog'atga yetmagan bolalarga nisbatan majburlash, nomusiga tegish, o'z joniga qasd qilish hollarida o'tkaziladi.

Sud - psixologik ekspertizasini o'tkazishdan asosiy maqsad jinoyatchining psixologik xususiyatlarini, jinoiy hatti - harakatlar qilayotgan paytidagi uning ruhiy holatlari, jumladan, affekt (kuchli qo'zg'alish, shuuriy holati), stress holati (kuchli hayajonlanish), suitsid (o'z joniga qasd qilish) holatlarini aniqlash va jinoyatchiga to'g'ri psixologik tashxis qo'yish, ya'ni uning jinoiy xatti - harakatlar qilayotgan vaqtida ongsizlik holatida bo'lgan yoki bo'lmaganligini aniqlashdir.

Kompleks ekspertizalarning mazmuni shundan iboratki, bunday ekspertizalarni o'tkazishda turli mutaxassislar jalb qilinadi. Jumladan, psixolog, shifokor, psixiatr, texnolog, pedagog kabilarning fikrlari jamlanadi. Kompleks ekspertizalar muammolar juda murakkab bo'lganda o'tkaziladi.

Sud - psixologik ekspertizasini o'tkazish zarurati avvalo tergovchining ixtiyori bilan hal etiladi, ya'ni bu masalani hal qilish uning vakolatiga kiradi. Sud – psixologik ekspertizasini tayinlash, uni o'tkazish paytida tergovchi va ekspert o'rtasidagi psixologik munosabatlar sezilarli rol o'ynaydi. Ularning munosabatlari o'zaro hurmat, hamkorlik va ishonch asosiga qurilmog'i lozim. Agar davlat ekspertizasi muassasasi hududida ekspertiza o'tkazishning imkoni bo'lmasa, tergovchining o'zi ana shunday muassasa va ekspertni (mutaxassisni) qidirib topadi. Bunday muassasa va ekspertni tanlashda ularning saviyasi, xolisligi, ish natijasidan manfaatdor emasligi hal qiluvchi shartlar bo'lib hisoblanadi.

Ekspertga biror bir tarzda psixologik tazyiq o'tkazilishiga yo'l qo'yib bo'lmaydi. Tergov amaliyotining tahlili shuni ko'rsatadiki, ekspertga tergovchi o'z nuqtai nazarini o'tkazish, xizmat lavozimidan foydalanib, psixologik tazyiq o'tkazish, ekspertiza tadqiqotlari muddatini qisqartirishni ko'zlab, soddaroq metodlar turini qo'llashni talab qilish ekspertizaga tergovchi tazyiqining yo'llari bo'lishi mumkin. Shuning uchun psixolog - ekspert yoki mutaxassis - psixolog o'z tajribasidan kelib chiqqan holda qonun asosida ish ko'rishi maqsadga muvofiqdir.

Sud – psixologik ekspertizasini tayinlanishi, uning natijalari ayblanuvchiga kuchli psixologik ta'sir ko'rsatadi. Natijada u aksar hollarda rostmana ko'rgazma bera boshlaydi.

Tergov amaliyoti tahlili shuni ko'rsatadiki, shaxsning hayoti, sog'ligi, erki, sha'niga nisbatan mulkka, jamoat tartibiga, xavfsizligiga, aholi sog'ligiga qarshi, voyaga yetmaganlar sodir etgan jinoyatlar bo'yicha sud – psixologik ekspertizasini tayinlash zaruriyati ko'proq tug'iladi.

Shuningdek, tergovchida guvoh, jabrlanuvchi yoki ayblanuvchi muayyan sharoitlarni to'g'ri idrok qila olishi va ko'rgazma bera olishiga shubha tug'ilgan kezlarda ham sud – psixologik ekspertizasini tayinlanadi.

Sud – psixologik ekspertizasini o'tkazishda psixolog quyidagi bosqichlarda ish olib boradi:

- jinoiy ishni ochish uchun to'plangan barcha ish hujjatlari bilan batafsil tanishib chiqadi;
- jinoyatchi, gumonlanuvchi, jabrlanuvchilar bilan individual suhbatlar olib boradi;
- ular ustida psixologik test o'tkazadi;
- test natijalari va suhbat, kuzatish uslublari orqali jinoiy hatti -harakatlarni psixologik jihatdan tahlil qiladi;
- ekspertiza natijalariga asoslangan holda psixologik ekspertiza xulosasini tayyorlaydi va tergovchiga taqdim etadi;
- tayyorlagan xulosasi asosida agar sud jarayonida guvohlik berilishi talab qilinsa sudga qatnashadi.

Sud – psixologik ekspertizasining predmeti ayblanuvchi, sudlanuvchi, guvohlar va jabrlanuvchilarning ko'rgazmalari haqqoniyligini tasdiqlash emas, balki so'roq qilinayotgan shaxsning o'ziga xos xususiyatlariga ko'ra isbotlanishi zarur faktlarni idrok qilish, xotirasida saqlash hamda bayon eta olish qobiliyati boshidan kechirayotgan ruhiy jarayonlarga aynan muvofiqligini aniqlashdan iboratdir.

Ko'pincha voyaga yetmagan shaxs psixologik ekspertiza ob'ektiga aylanadi. Psixologiyaning yordamisiz tergovchi yoki sud voyaga yetmagan shaxs yoki o'smirning jinoiy-huquqiy ahamiyat kasb etuvchi faoliyatiga yoshiga xos alomatlarining nechog'lik ta'sir ko'rsatganini aniqlab ololmaydilar. Affaektiv holat jabrlanuvchining noqonuniy xatti-sharakatlari tufayli yuzaga kelgan bo'lsa, jinoyatning ayrim tuzilishlarini kvalifikatsiyalashda aybni yengillashtiruvchi holatlar ekanligini aniqlash ekspert-psixolog vakolatiga kiradi. Bunday hollarda psixolog-ekspert o'z kasbining mohir ustasi, tajribali bo'lishi talab qilinadi. Sud – psixologik ekspertizasini tajribali, kuchli mutaxassis-psixologlar olib borishlari maqsadga muvofiqdir. Chunki bunday ekspertiza orqasida shaxsning taqdiri turadi.

Affektiv holatning davomiyligi, intensivligi va mexanizminisud-psixologik ekspertiza metodlari bilan tadqiq etish, dastlabki tergov xulosalarining ilmiy asoslangani va dalillanishini

ta'minlashda psixolog-ekspertning mahorati, kasb fazilatlarini katta rol o'ynaydi. Jinoyat sodir etilgan paytda shaxs xulq - atvorining alohida xususiyat kasb etishiga sabab bo'lgan boshqa holatlarni tadqiq qilish ham sud-psixologik ekspertizani vakolatiga kiradi. Affektdan tashqari ularning qatoriga charchoq, qattiq qo'rquv, og'ir musibat, (depressiya) tushkunlik kabilarni qo'shish mumkin.

Tergov va sud amaliyotida tug'iladigan psixologik masalalarni hal qilish ekspert - psixologga bir qator qo'shimcha talablarni qo'yadi. Jumladan, psixolog - ekspert protsessual Qonunning ekspert tadqiqotlariga oid qismini, dastlabki tergov va sud - surishtiruvning maxsus shartlarini bilishi lozim.

Demak, psixolog - ekspertda quyidagi kasbiy fazilatlar shakllangan bo'lishi jinoyatni ochishda adolatlilik tamoyiliga amal qilishga olib keladi:

- psixolog - ekspert adolatli, vijdonli bo'lishi;
- psixolog tergovchiga va ayblanuvchiga nisbatan xushmuomala, madaniyatli bo'lishi;
- psixolog tajribali mutaxassis sifatida kuchli irodali, sabr - toqatli, mulohaza bilan ish yuritishi;
- psixolog - ekspert xulosani o'z vaqtida topshirishi, ya'ni tartibli, mas'uliyatli bo'lishi maqsadga muvofiqdir.
- Psixolog- ekspert ayblanuvchi bilan shaxs sifatida munosabatda bo'lishi kerak.

Yuqoridagi insoniy fazilatlar psixolog - ekspertda shakllangan bo'lsa jinoyatchiga nisbatan adolatli ish ko'rish amalga oshiriladi va haqiqat tezroq yuzaga chiqib, qaror topadi.

Psixolog - ekspert mutaxassis sifatida ayblanuvchi bilan ish olib borishda quyidagicha tartibda ekspertiza o'tkazadi:

- ayblanuvchi, jabrlanuvchilar bilan individual suhbat o'tkazadi;
- ularning psixologik xususiyatlarini (idroki, diqqati, hissiyoti, temperamenti, xarakteri, irodasi kabilarni) aniqlaydi;
- kuzatish, suhbat, psixologik test kabi metodikalarni o'tkazadi;
- ayblanuvchiga ochilgan jinoyat ishi bilan batafsil tanishib chiqadi;
- o'tkazilgan tadqiqotlar natijalariga asoslangan holda ekspertiza xulosasi tayyorlaydi.

Sud - psixologik ekspertiza natijalarini tahlil qilishda ayblanuvchining jinoyatni nechanchi marta sodir etganligiga e'tiborini qaratadi. Shuningdek, uning oilaviy psixologik muhitini aniqlashga harakat qiladi. Bundan tashqari, ekspertizaga oid adabiyotlar bilan tanishadi.

Demak, sudga oid psixologik ekspertizaning jinoiy xatti - harakatlarni aniqlashdagi ahamiyati juda katta ekan. Shuning uchun mutaxassis-psixologlar ayblanuvchining psixologik

xususiyatlarini, uning jinoiy xatti - harakatlarni sodir etayotgan vaqtdagi ruhiy holatlarini aniqlashda juda katta mas'uliyat bilan ish olib borishlari maqsadga muvofiqdir.

Sud munozarasining nutq madaniyati. Sud nutqi madaniyati ochiq huquqiy munozara jarayonida yuristning kasb sifati va mahoratini namoyish etuvchi vosita hisoblangani uchun ham huquqshunoslik va tilshunoslik sohalarini puxta egallash bilan bog'liq bo'ladi. Mavzuni o'rganish ana shu masalaning ayrim jihatlarini yoritishga qaratilgan.

Hozirgi sudlov jarayoni, sudyalarning ish faoliyati qadimda O'rta Osiyo davlatlarida olib borilgan qozilik vakolati doirasida hukm chiqarish jarayonidan tubdan farqlanadi va u dunyo sudlov andozalari asosida takomillashgan. Shu bilan birga, bu jarayon mustaqil O'zbekiston sharoitida xalq va davlat manfaatlarini himoya qiluvchi yangi qonunlar asosida olib boriladi.

Sudlov jarayonida amaldagi qonunlar buzilgan deb hisoblangan holatlar yoki inson taqdiri, davlat yoxud biron bir tashkilot hayotiga aloqador bo'lgan masalalar muhokama qilinadi va «hukm», «ajrim» tushunchalari ostida tegishli qarorlar qabul qilinadi.

Jarayonda ijro etiladigan sud nutqi avvalgi mavzularda ko'rib o'tilgan ijtimoiy-siyosiy, akademik, maishiy, diniy kabi ommaviy nutq ko'rinishlari orasida o'zining alohida xususiyatlari bilan ajralib turadi. Bu xususiyatlar sud jarayoni bilan bog'liq ravishda namoyon bo'ladi. Chunki sud jarayonida masalani hal etishga aloqador bo'lgan tomonlar, ularning mas'ul kishilari – sudya, xalq maslahatchilari, prokuratura va ichki ishlar xodimlari, advokatlar, jamoatchi qoralovchi va himoyachilar, guvohlar hamda sudlanuvchi ishtirok etishadi. Ularning har biri sud jarayonida qonun va sudlanuvchining manfaatlarini ko'zlab nutq so'zlashlari mumkin. Ana shu manfaatlar, maqsad va vazifalar nuqtai nazaridan bu nutqlarning mazmuni va shakli turlicha bo'lib, ularning barchasi *sud nutqi* degan umumiy tushuncha ostida birlashadi hamda prosessual vazifani bajarishda baravar ishtirok etadi. Ularning har birining ahamiyati, ta'sir va ishontirish kuchi bilan boshqa nutq uslublaridan farqlanadi.

Sudlov amaldagi qonunlar doirasida olib borilsa-da, sodir etilgan jinoyat yoki qonunbuzarlikka munosabat bildirishda ishtirok etayotganlarning manfaatlari bir-biriga zid keladi va ular qoralovchi-oqlovchi mazmunida ikki qutbga ajraladilar. Oraliq pozisiyada – qonun va adolat pozisiyasida turgan sudya esa sodir etilgan voqyea-hodisa yuzasidan barcha dalillar va da'volarni tahlil qiladi va tegishli hukm chiqaradi. Mana shu jarayonda xizmat vazifasi va manfaatidan kelib chiqib, ularning har birining o'z nutqi shakllanadi. Bu nutqlar quyidagicha nomlanadi: prokuror nutqi, jamoatchi-qoralovchi nutqi, advokat nutqi, sudlanuvchining o'z-o'zini himoya qilish nutqi va hukm shaklidagi sudya nutqi kabilar.

Odil sudlovni amalga oshirishda sudya bilan bir qatorda prokuratura va advokatura organlari zimmasiga ham katta vazifalar yuklatiladi. Chunki bu organlarning vakillari sudlov jarayonida ko'plab jinoiy va fuqarolik ishlarini ko'rib chiqishda bevosita ishtirok etishib, tomonlar manfaatini himoya qilishadi.

Prokurorning vazifasi ishni ko'rib chiqish jarayonida sudlanuvchining aybini isbotlashdan iborat bo'lsa, advokat jinoiy javobgarlikka tortilayotgan kishiga huquqiy yordam ko'rsatishni o'zining asosiy ishi deb biladi. Ularning ikkalasi ham sud muhokamasida muhim ahamiyatga ega bo'lgan ma'lum jinoyat va qonunbuzarlikka oid o'z munosabatlarini og'zaki nutqi orqali bayon qilishadi hamda shu yo'l bilan ma'lum faktlarga oid masalalarning oydinlashishiga, binobarin, sudning to'g'ri va obyektiv xulosaga kelishiga, qonuniy va asosli hukm chiqarishiga ko'maklashadi.

Ayblovchi ham, himoyachi ham jinoyat tarkibini qarab chiqar ekan, uning davlat manfaati uchun va ijtimoiy xavflilik darajasini, qanday oqibatlarga olib kelishi mumkinligini chuqur tahlil qiladi. Bularning barchasi katta tarbiyaviy ahamiyatga ega bo'lib, sudlanuvchi uchun ham, sud auditoriyasi uchun ham ta'sir qiladi. Ana shuning uchun ham sud jarayonida ijro etiladigan nutqlarga faqat ishni ko'rib chiqish jarayonidagi xizmati nuqtai nazaridan emas, balki tarbiyaviy ahamiyati nuqtai nazaridan ham baho berilishi lozim bo'ladi. Har ikkala tomonning nutqlari qanchalik batafsil va yorqin bo'lsa, sudda ishtirok etuvchilar ongida chiqarilgan hukm haqida, sudning odilligi haqida tasavvur ham shunchalik oydin bo'ladi. Bundan shunday xulosa kelib chiqadiki, Vatanimizga mustaqillik bergan buyuk ne'matlardan biri demokratik tamoyillarga asoslangan jamiyat qurish va bunda sud faoliyatini mustaqil qilish, uni har qanday tazyiqlardan xalos etish bo'lgan ekan, odil sudlov jarayonida sodir etilgan jinoyatning mohiyatini ochish yo'lidagi bahslar ana shu demokratiyaning bir ko'rinishi sifatida baholanadi. Shunday ekan sud jarayonidagi nutqlarning g'oyatda mazmunli va savodli, aniq va ishonarli bo'lishi odil sudlovning mezoni sifatida qaralishi lozim.

Ayni paytda, suddagi ba'zi nutqlar yuqoridagi talablarga javob berish bilan birga uzundan uzoq da'vatlardan iborat bo'lib, jinoyatning haqiqiy mohiyatini ochishga yordam

berishdan ko'ra, ko'proq kishilarning vaqtini olishi mumkin. Bu esa sud nutqi oldidagi mas'uliyatning naqadar katta ekanligini yana bir bor tasdiqlaydi.

Sud jarayonida ishtirok etishi lozim bo'lgan tomonlar tabiiyki, unga tayyorgarlik ko'rishadi. Nutqiy tayyorgarlik ham shular jumlasiga kiradi. Masalan, sudya ham, prokuror va advokat ham dastlab ko'rib chiqiladigan materialini sinchiklab o'rganib chiqishadi. Guvohlar ko'rsatmalarini tahlil qilishadi va qonun hamda prosessual talablar asosida o'z pozitsiyalarini aniqlab olishadi, sodir etilgan voqeya yoki jinoyatga baho berishib, uning yuridik va axloqiy jihatlarini hisobga olgan holda munosabat bildirishga tayyorgarlik ko'rishadi. Har bir fikr qonuniy aktlar bilan taqqoslanadi, asoslanadi va ular ketma-ket tarzda joylashtiriladi. Shu tarzda nutq rejasi va sxemasi tuziladi va bunda nutq xulosasiga alohida ahamiyat beriladi.

Suddagi nutqni ijro etish jarayoni esa g'oyatda mas'uliyatli bo'lib, nutqlar bu jarayonning sudlanuvchi taqdirini hal qiladigan, kulminasion nuqtasi hisoblanadi. Tinglovchilar diqqatni tortish, aqli va hissiyotiga ta'sir qilish oson ish emas, albatta. Munozara, bahs, masala talashish (polemika), isbotlash, rad etish juda katta mahorat, bilim va mehnatni talab etadi.

Sud notiqiligi notiqlik san'atining eng qadimgi ko'rinishlari dan bo'lib, bahs va munozaralar asosiga qurilganligi bilan ajralib turadi. Garchi har ikkilalari ham sudda javobgarlikka tortilayotgan kishini yoki guruhni obyekt qilib olgan bo'lsalar-da, ta'kidlaganimizdek, undagi prokuror va advokat nutqlari, jamoatchi-qoralovchi va jamoatchi-oqlovchi nutqlari mazmun-mohiyati va axloqiy-huquqiy yo'nalishi bilan bir-biridan farq qiladi va bu narsa bahs-munozaraga sabab bo'ladi. Bu bahs-munozaralar haqiqatning ro'yobga chiqishiga, sud hay'atining adolatli hukm chiqarishiga ko'maklashadi. Hoviyatda xolisonalik, obyektivlik, ayblanuvchi yo'l qo'ygan har bir holatni mayda-chuydasigacha tahlil qilish va dalillash, asoslash va huquqiy baho berish bu nutqlarga muvaffaqiyat keltiruvchi jihatlardir. Sodir etilgan jinoyatga va uni sodir etgan ayblanuvchiga aniq va to'g'ri tavsif berish va bunda ruhiy holatlarni hisobga olish ana shu xolisonalikning garovi bo'lib xizmat qiladi.

Sud jarayonida prokuror va advokatning umumiy manfaati adolatning ro'yobga chiqishi mazmunida bir-birilariga mos kelsa-da, xususiy holatlarda ularning nutqi bir-biriga qarama-qarshi turadi va ma'lum ma'noda ular sud jarayonida musobaqalashayotgandek tuyuladi.

Harqalay, sudda gapirish prokurorga yengilroq kechadi. Chunki u davlat nomidan gapiradi va bunda amaldagi qonunlarga tayanib ish ko'radi. Prokuror nutqining tuzilishi quyidagicha: sudlanuvchining sodir etgan jinoyatiga oid aniqlangan faktlar, tahlillarga asoslanib, uning barcha xatti-harakatlariga, agar mavjud bo'lsa, jamiyat oldidagi xizmatlariga, xullas axloqiy qiyofasiga tayanilib, ko'rib chiqilayotgan ishga tavsif beriladi va bu nutq jazo chorasi yoki jazodan ozod etish haqidagi tavsiya bilan tugallanadi. Mustaqil o'zbek davlati qonunchiligining oliy namunasi bo'lganligi uchun ham prokuror nutqida sudlanuvchining

sha'niga tegishi mumkin bo'lgan gaplarning qo'llanishi munosib emas. O'zRning «Prokuratura to'g'risida»gi Qonuniga muvofiq juda katta huquq va imtiyozlar berilgan prokurorga, ayni paytda, katta huquqiy mas'uliyat ham yuklangan. Ana shuning uchun ham u o'z huquqini suiiste'mol qilishi, sudda ayblanuvchini mensimagan holda nutq so'zlashi uning obro'siga jiddiy putur yetkazadi.

II BOB. Yuridik faoliyatning ijtimoiy-psixologik asoslari

II.1. Jinoyatchi shaxsini asosiy kriminal, tipologik tiplarining

Muloqot faqat insonlarga xos bo'lgan jarayondir. Kishilarda faoliyat jarayonida bir - birlariga nimanidir aytish istagi tug'iladi.

Muloqot - odamlar o'rtasida birgalikdagi faoliyat ehtiyojlaridan kelib chiqadigan bog'lanishlar rivojlanishining ko'p qirrali jarayonidir. Muloqot (munosabat) birgalikda faoliyat ko'rsatuvchilar o'rtasida axborot ayirboshlashni o'z ichiga oladi. Bunda munosabatning kommunikativ jihatida hisobga olinadi. Kishilar munosabatga kirishishda avvalo tilga murojaat qiladilar. Muloqotning yana bir jihatida munosabatga kirishuvchilarning o'zaro birgalikdagi harakati - nutq jarayonida faqat so'zlar bilan emas, balki harakatlar bilan ham ayirboshlashdan iborat. Masalan, munosabatga kirishar ekanmiz, u bizni qoniqtirsa imo-ishora bilan muloqotda bo'lamiz. Munosabatning keyingi jihatida muloqotga kirishuvchilarning bir-birlarini idrok etish olishlaridir. Masalan, biz bir kishi bilan muloqotga kirishishdan avval uni hurmat qilib yoki mensimasdan munosabatda bo'lamiz. Demak, muloqot jarayonida kommunikativ (axborot uzatish), interaktiv (o'zaro birgalikda harakat qilish) va perseptiv (o'zaro birgalikda) idrok etish amalga oshiriladi.

Muloqot qonuniyatlarini bilish hamda uni o'rnatish malakalari va qobiliyatlarini rivojlantirish har bir kishi uchun muhimdir.

Har bir kishining o'z "Meni" atrofdagilar bilan bo'ladigan muloqot jarayonida shakllanadi. Shaxsning hayot yo'llari avval oilada, bog'cha, maktab, institut, ishxona, keksalar orasida, ya'ni guruh va jamoalarda rivojlanadi. Bizning yuksak ma'naviy ehtiyojlarimizdan biri - bu muloqotga bo'lgan ehtiyojdir. Muloqotga bo'lgan ehtiyojimiz qondirilmasa, ongimiz ham rivojlanmaydi. Shuning uchun biz doimo muloqotga bo'lgan ehtiyojlarimizni qondirishimiz lozim. Kimlar bilandir bo'lgan muloqotdan qoniqish hosil qilamiz, lekin ayrim hollarda esa biz qoniqmaslikni his qilamiz.

Biz guruh va jamoaga kirar ekanmiz, doim unda turli rollarni bajarishga to'g'ri keladi. Rasmiy guruhda boshliq rolini o'ynasak, kasalxonada bemor, do'konda haridor, oilada rafiq yoki rafika, ota - ona oldida esa farzandlik rolini bajaramiz.

Jinoyatchilikning ijtimoiy determinatsiyasi mexanizmi shaxsiy o'rganishga ikki xil: ijtimoiy-tipologik va ijtimoiy rol yondoshuvi taqozo etadi. Ijtimoiy-psixologik yondoshishda shaxsning ijtimoiy nuqtai nazarida, shunga muvofiq ijtimoiy normalari, ularni idrok etish va ijro etishni tahlil qilinadi. Ikkinchi holatda shaxs ijtimoiy munosabatlarining faol arbobi, sub'ekti sifatida ko'rib chiqiladi.

Jinoyatchi shaxsini kriminal psixologiya o'rganadi. Bu fanning asosiy masalalaridan biri - shaxsning ichki, ruhiy sabablarini ajratib ko'rsatishdan iborat. Chunki avvalo shaxsning

motivlashadigan ichki sabablari tashqi muhitning ayrim omillari bilan o'zaro qo'shilib, shaxs uchun kriminal vaziyatni yaratishi mumkin.

Jinoyatlarning har xil turlari (qasddan, zo'ravonlik bilan, ehtiyotsizlik oqibatida) uchun huquqbuzardagi turlicha soxta motivlari xarakterli bo'lib hisoblanadi. Moddiy – tovar qadriyatlari va xizmatlarga ehtiyojlar bilan ularni ro'yobga chiqarish o'rtasidagi uzilish ijtimoiy salbiy oqibatlarni keltirib chiqaradi. Jinoiy xulq-atvorning ikki shakli mavjud: moddiy va maishiy, madaniy xizmat ehtiyojlari. Yetishmovchilik jinoiy faoliyat o'sishiga shart-sharoit yaratadi. Talab va taklif o'rtasidagi nomutanosiblikdan turli-tuman "ishbilarmonlar" foydalanadi, qonunga xilof operatsiyalar orqali o'z to'lov qobiliyatini oshirib boradi. Ehtiyojlarni qondirishdagi yetishmovchilik firibgarlik, poraxo'rlik, korrupsiya, narkobiznesning tegirmoniga suv quyadi.

Tergovchi va sud tomonidan ayblanuvchi shaxsining psixologik xususiyatlarini to'laqonli va chuqur o'rganish bir qator dolzarb masalalarni hal etishga ko'maklashadi: jumladan, sodir etilgan jinoyatni to'g'ri klassifikatsiyalash, taktik usullarni to'g'ri tanlash, huquqbuzarga nisbatan tarbiyaviy ta'sir o'tkazishni birinchi so'roqdan boshlash, ayblanuvchining psixologik xususiyatlarini chuqur o'rganish kabilar.

Kriminal psixologiyada jinoyatchi shaxsini o'rganish dasturi katta ahamiyatga ega. Unda quyidagi belgilarni ko'rsatib o'tish kerak:

4. Ijtimoiy – demografik - bu guruh jins, yosh, ma'lumot, siyosiy e'tiqod, ijtimoiy mavqe, mutaxassislik, qanday rolga mansublik kabilar.
5. Ijtimoiy – psixologik - bu guruh bo'yicha shaxsning aql - idroki, irodasi, ma'naviy fazilatlari, xarakteriga xos xususiyatlar bilan baholanadi.
6. Psixofiziologik – bu guruhga temperament tiplari kiritiladi.

Uyushgan jinoyatchilik ijtimoiy o'ta xavfli bo'lib, jinoyatchilikning «cho'qqisi» ni anglatadi. U odatdagi jinoiy sheriklarlan farqli o'laroq jinoiy hamjamiyat tarzidagi faoliyatni bildiradi.

Uyushgan jinoyatchilik – barqaror hodisa bo'lib, odatdagi jinoyatning oldini olish – profilaktika tadbirlariga bo'ysunavermaydi, chunki jinoiy jamoa ishtirokchilarining kriminogen bog'liqligi doimiy o'zaro ta'sir bilan kuchaytirib turiladi, guruh a'zolaridan birining jinoiy muhitdan chetga chiqishiga urinishi esa shafqatsizlik bilan o'ch olinishiga sabab bo'ladi.

Uyushgan jinoyatchilik keng qamrovliligi bilan ajralib turadi. Ko'pincha butun boshli xududlarni, xalq xo'jaligi tarmoqlarini o'z to'ri bilan qamrab olib, jinoyatchilarning huquq - tartibot idoralaridagi ayrim korrupsiyaga moyil xodimlari, poraxo'r, mansabini suiste'mol qilish, katta miqdorda davlat va jamoa mulkini o'zlashtirish, qonunga xilof kontrabanda-valyuta operatsiyalari yordamida jamiyat taraqqiyotiga g'ov soladi.

Jinoiy hamjamiyat a'zosi bo'lib qolgach, ko'pchilik jamoatchilar faollashib ketadi, chunki ularning faoliyati guruh «obro'-e'tibori» bilan quvvatlanib turiladi. Uyushgan jinoyatchilikni faqat ungagina xos uchta belgilar xarakterlab beriladi:

4. Barqaror tashkiliy tizim uzoq muddat davomida muntazam jinoiy faoliyat bilan shug'ullanishini ko'zda tutib tashkil qilinadi, jinoiy hamjamiyat a'zolari o'rtasida mavqe zinapoyalari amal qiladi, unga ko'ra «quyi» mavqedagi shaxs yuqoriroq mavqeni egallaganga so'zsiz bo'ysunadi, rollar va faoliyat chegaralari qat'iy taqsimlab qo'yiladi, o'ziga xos «mehnat taqsimoti» ixtisoslashuvi hukm suradi, shtat ro'yxatiga monand tarzda «amallar» belgilab qo'yiladi - qo'rboshi (ba'zan bir necha guruhlarining qo'rboshilari) jinoiy «kassa» xazinachisi, aloqachilar, qora ishni bajaradigan jangarilar, «rahbar»ga - qo'rboshiga so'zsiz itoat etadilar. Ayrim jinoiy to'dalar o'z razvedkalari va kontrarazvedkalarini, ba'zan esa hatto o'z sudlarini tuzadilar.

Jinoiy guruh a'zolari bir-biriga ipsiz bog'langan, «qondosh», shu jumladan qurbonlarning to'kilgan qoni evaziga «qondosh» bo'lib qoladilar. Ko'pchilik jinoiy guruh a'zolari «qasam» ichadilar, har qanday sharoitda ham «sheriklari» va sodir etgan jinoyatlarini sir saqlashga so'z beradilar. Bu ularning «axloq kodeksi» dir.

5. Jinoiy guruh garchi surbetligi va murakkab tayyorgarligiga ko'ra pishiq-puxta faqat bitta jinoyatni (masalan bankni o'marish) sodir etish uchungina emas, balki uzoq muddat, ba'zan yillar mobaynida jinoiy faoliyat bilan shug'ullanish maqsadida tarkib topadi.
6. Uyushgan jinoyatchilikning uchinchi belgisi –korruptsiyadir, boshqacha qilib aytganda, jinoiy elementlarning davlat apparati hamda huquq-tartibot idoralari bilan chatishib ketishlaridan iboratdir.

Jinoyatchi guruhlarining jinoiy harakatlarini tahlil qilganda quyidagi omillarga e'tibor berish kerak:

4. Ushbu guruhga uyushish sabablari:
 - «birlashmasdan» jinoyat sodir etishning imkoniyati yo'qligi;
 - jinoiy maqsadlarning uyg'unligi;
 - shaxsiy bir-birini yoqtirish;
 - xulq-atvorning, e'tiqodlarning monandligi, huquqiy ongdagi umumiy norasolik.
5. Jinoiy guruhda rollarning taqsimlanishi:
 - iroda sifatleri;
 - tashkilotchilik qobiliyatlari;
 - yetakchilarning obro'si va tashabbusi;
 - ikkinchi darajali a'zolarining irodasizligi, moslashuvchanligi, ichkilikka ruju qo'yish.
6. Guruh ichidagi to'qnashuvlar va ziddiyatlar.

Uyushgan jinoiy tizimlar zulukdek jamiyat qonini so‘radi. Yashirin iqtisod ularning moliyaviy asosidir.

Jinoyatchilikning tub o‘zagi g‘arazdan iborat motivdir (kontrabanda, soxta pul yasash, valyuta operatsiyalari qonunlarining buzilishi kabi). Davlat va xizmat sirlarini sotish, qotillik va qiynash, qurol va o‘q-dori bilan qonunga xilof operatsiyalar kabi jinoyatlar uchun g‘arazli motivlashuv xarakterlidir. Shantaj qilib to‘lov undirish maqsadini ko‘zlagan jinoyatchilikning yana bir turi «kindneppin» (odamlarni, ko‘pchilik hollarda bolalarni o‘g‘irlash) ham tomir otdi.

Uyushgan jinoiy guruhlarining manbalaridan biri (ayniqsa reket jinoyatida) sportchilar bo‘lib qolyapti. Zo‘ravonligining intensivligi jihatidan reket uyushgan jinoyatchilikning eng tajovuzkor turlaridan biri bo‘lib hisoblanadi. Ko‘p hollarda u jismoniy zo‘rlik ishlatish, azoblash, qiynash, kimnidir garovga olish, mol-mulkni yo‘q qilib tashlash, bosqinchilik ko‘rinishlarida namoyon bo‘ladi.

«Omadi chopgan» jinoiy hamjamiyat a‘zolarida jazoning muqarrar emasligi, korporativ birdamlik, himoyalanganlik tuyg‘ularini shakllantiradi. Biroq jinoiy guruhlardan birini fosh etishga oid muvaffaqiyatli o‘tkazilgan tergov boshqa guruhlardagi jinoyatchiliklarda fosh etilishdan qo‘rquvni uyg‘otadi, o‘zini asrash hissini qo‘zg‘atadi. Tergov muvaffaqiyatli o‘tkazilishi uchun jinoiy hamjamiyatning psixologik tahlilini, uning tuzilishini, barcha a‘zolarini, «lavozim zinapoyasidagi» mavqeini, har birining shaxsiy xususiyatlarini o‘rganish va aniqlashdan boshlamoq zarur.

II.2. Muloqot jarayonida psixologik aloqani o'rnatish va rivojlantirish taktikasi.

Muloqotning muvaffaqiyatli bo'lishida shaxsning shakllangan sifatlari, fazilatlarining ahamiyati juda katta. Jumladan, shaxsda ijobiy fazilatlar yaxshi shakllangan bo'lsa (xushmuomalalilik, kamtarlik, insonparvarlik, to'g'ri so'zlilik, vijdonlilik kabilar) muloqot jarayoni ham yaxshi o'tadi. Chunki shaxslar bir-birini to'g'ri tushunishlari uchun, muloqot muvaffaqiyatli bo'lishi uchun ular samimiy bo'lishlari lozim.

Samimiylik insonning eng ajoyib fazilatlaridan biri bo'lib, voqea-hodisalarga oqilona munosabatda bo'lish, turli ta'sirlarga berilmaslikdir. Samimiylikning muhim belgisi - bu yuzdagi xushmuomalalik ifodasi va tabassum. Samimiylik bizning kayfiyatimizga ham bog'liq, chunki kayfiyatimiz yaxshi bo'lsa, samimiylik kuchayadi. Samimiylik ko'rsatish uchun kishining ko'ngli toza, oqko'ngil bo'lish lozim. Samimiylik fazilati ayniqsa rahbarning xodimlari bilan qiladigan muloqotida muhimdir. Agar rahbar xodimlari bilan samimiy munosabatda bo'lmasa ularning kayfiyati tushib, mehnat unumdorligi pasayishi mumkin. Ayrim rahbarlar qo'l ostidagilar bilan qo'pol, mensimasdan munosabatda bo'lib, buyruq ohangida avtokratik uslubga asoslanib ish ko'radilar.

Mashhur Amerikalik notiq, psixolog Deyl Karnegi kitobida ko'rsatilishicha, bir rahbar doimo kovog'ini solib yurgan, kishilar bilan samimiy munosabatda bo'lmagani uchun hamma undan qo'rqib, undan qochib yurar ekan, hatto turmush o'rtog'i bilan ham mensimasdan muomala qilar ekan. Karnegining ma'ruzasidan so'ng bu rahbar turmush o'rtog'iga ham, qo'l ostidagi kishilarga ham samimiy jilmayib muomala qilishni boshlaganida hamma uni yaxshi ko'rib obro'si ortib ketibdi, o'zining ham kayfiyati ko'tarilib ketibdi.

Muomala sirlaridan yana biri -bu kishilar bilan munosabatda jilmayishdir. D. Karnegi fikricha, jilmayganda biz bir-birimizga yaxshilik qilish istagida turamiz. Masalan, transport haydovchilari, aholiga xizmat ko'rsatish xodimlari, oshpazlar, sartaroshlar, sotuvchilar samimiy bo'lsalar, kamtar, xushmuomala bo'lsalar, "biz sizga xizmat ko'rsatishdan mamnunmiz" degan so'zlarni ishlatsalar, ularning obro'lari ortib, muxlislari ko'payadi, kishilar ularning xizmatlaridan ko'proq foydalanadilar. Shuningdek, yuristlar ham fuqarolarga yaxshi muomalada bo'lishlari maqsadga muvofiqdir.

Guvoh va jabrlanuvchilar, shubhalanuvchi va ayblanuvchilardan kerakli ma'lumotlarni olishning psixologik xususiyatlari.

Bizga zarur ma'lumotlarni bilib olishning ikkita asosiy yo'l - yo'rig'ini ko'rsatish mumkin. Birinchisi - sub'ektni yurist uchun qiziqarli bo'lgan faktlarni beixtiyor tilga olishga moyil etish. Ikkinchisi-bizni qiziqtirayotgan shaxsga tegishli axborotni mujassam etgan ixtiyorsiz jismoniy va ekspressiv xatti-harakatlarga mayl uyg'otish.

Birinchi usulni shartli ravishda nutqli – reproduktiv deb atash mumkin. Guvoh, jabrlanuvchi va ayblanuvchini huquqshunosga zarur ma'lumot berishga qo'zg'atuvchi bir qator usullar mavjud.

1. Manfaatdor sub'ektning xotirasida muayyan obrazlarni uyg'otuvchi hamda ixtiyorsiz mulohazalarni aytib yuborishga qo'zg'atuvchi konkret predmetlarning namoyish qilinishi. Misol uchun fotosurat, fotoapparat, fotoishiga oida qog'ozlar, bular suhbatga turtki berishi mumkin.
2. Suhbatda turdosh mavzudan foydalanish. Ya'ni birdaniga gangitadigan savollar bermasdan, ikkinchi darajali savollar orqali asosiy savolga o'tish va unga javob olish darkor.
3. Bevosita, to'g'ridan - to'g'ri, lekin yetarli darajada motivlashgan savollarni ko'ndalang qo'yish.
4. Muloqot mobaynida bizni qiziqtirayotgan sub'ektda muayyan ruhiy holatni shakllantirish yo'li bilan uni tegishli suhbatga undash.
5. Bizni qiziqtirayotgan sub'ektning jinoiy xatti-harakatlariga aloqador konkret predmetlarni namoyish etish.
6. Bir zumlik, kutilmagan, psixologik jihatdan ta'sirchan hayotiy holatlarni yaratish.
7. Odatdagi faoliyat sharoitini yaratish.

Jinoyatchilar bilan aloqa o'rnatish uchun avvalo ular bilan muzokaralar olib borish muhimdir. Muzokara olib borish qobiliyati yoki diplomatiya asrlar mobaynida murakkab aqliy faoliyat jarayoni deb hisoblab kelingan. To'qnashuvlarning oldini olish yoki ularga chek qo'yish, murosa yo'llarini qidirish, ikkala tarafni qanoatlantiradigan qarorga kelish muzokara yo'li shartnomalar tuzish ko'nikmasini talab etadi.

Tomonlarning biri vujudga kelgan vaziyatni o'zgartirish istagini bildirgan chog'dan boshlab, muzokaralar boshlanadi. Muzokaralar insonlararo muomalaning yuksak vositasi, qadim o'tmishdan beri qo'llanilib kelinayotgan ajoyib ixtirosidir. Har qanday ijod kabi muzokara olib borish-asablarni tarang qiladigan og'ir aqliy mehnatdir.

Jinoyatchilar bilan muzokara o'tkazishda eng muhimi – muzokarachilarni tanlash va tayyorlashdir. Bu jarayon ko'ngilli istakni, nomzodlarning individual xususiyatlarini, ya'ni tang holatlarda fikr almasha olish, qo'zg'atuvchanlik, aks ta'sirning tezligi, o'zini tuta bilish, hissiy barqarorlik, aql-idrokni, muomalasini, xarakterining ushbu vazifaga zarur darajada muvofiqligi, insoniy fazilat ustuvorligini taqozo etadi.

Muzokarachilar psixologiya va pedagogika sohalarida chuqur bilimga ega bo'lishlari, maxsus tayyorgarlik ko'rgan bo'lishlari kerak. Bu bilimlarni egallashning asosiy metodologik rol o'ynashi bo'lib, bunda jinoyatchilar bilan muzokaralar chog'idagi kabi konkret muhit vujudga keltiriladi. O'qib-o'rganish jarayonida psixologik kurash, qonunga xilof xatti-harakatlardan

qaytarish maqsadini ko'zlab, jinoyatchilarga ta'sir o'tkazish, qoniqarli bitimga erishish ko'nikmalari mustahkamlanadi.

Sud notiqligi san'ati.

Mamlakatimiz qo'lga kiritgan mustaqillik esa ritorikani rivojlantirishni yana mantiqiy asosga qo'ydi. Demokratik tamoyillar asosida rivojlanish yo'lidan borayotgan mamlakatimizda Prezident va davlat siyosatini, milliy istiqlol g'oyasini xalqimiz ongiga singdirishda notiq'larga bo'lgan ehtiyoj g'oyatda katta bo'layotganligiga qaramasdan, bu borada ta'limning barcha tizimida amalga oshirilayotgan ishlar talab darajasida emas. Notiq'lar bugun faqatgina san'at sohasida emas, balki ta'lim jarayonida, davlatni boshqarishda, mafkuraviy ishlarni amalga oshirishda nihoyatda zarur. Bu vazifani kasb darajasida ko'taradigan maktablar esa mavjud emas. Lekin ularni shakllantirish hayot talabidir.

Sud jarayoni o'ziga xos bir munozara maydoni bo'lib, unda umuminsoniy axloq me'yorlariga mos keladigan, xalq va davlat, ayni paytda, ayblanuvchi va jabrlanuvchi manfaatini himoya qiladigan adolat va haqiqat tushunchalari hukmron bo'ladi. Bu jarayondagi barcha vositalar, jumladan nutq ham ana shu adolat va haqiqatning tantanasiga qaratilgan bo'ladi.

Prokuror nutqi. Yuqorida sanab o'tilgan nutqlar orasida prokuror nutqi o'zining mazmuni va til birliklarining tanlanishi bilan alohida ajralib turadi. Chunki prokuror o'z vazifasi nuqtai nazaridan sodir etilgan jinoyat yoki qonunbuzarlikni mavjud tuzum va davlat manfaatini hamda amaldagi qonunlar manfaatini ko'zlab baholaydi. Nega prokuror nutqi **qoralovchi nutqi, ayblovchi nutqi** deb ham nomlanadi? Aslida rasmiy tilda bu ibora ishlatilmasligi kerak. Chunki, u so'zlashuv uslubiga xos bo'lib, biron bir shaxs tomonidan sodir etilgan nojo'ya harakatning prokuror tilida davlat va qonun manfaati nuqtai nazaridan qoralangani uchun ham **qoralovchi, ayblovchi**, (ba'zan **davlat ayblovchisi**), **qoralovchi nutq, ayblovchi nutq** birliklari qo'llaniladi.

Jamoatchi-qoralovchi nutqi. Sud jarayonida jamoatchi-qoralovchi ham ishtirok etishi mumkin. Uning nutqi ayblanuvchi yoki sudlanuvchi manfaatiga zid fikrlar bayon qilinishi bilan prokuror nutqiga o'xshab ketadi. Ammo ko'p jihatlari bilan ular bir-biridan farq ham qiladi.

Birinchidan, jamoatchi-qoralovchi hamma sud majlislarida ham ishtirok etavermaydi. Biron bir tashkilot yoki muassasa manfaatini himoya qilish zarur bo'lgandagina uning ishtirok etishiga ehtiyoj bo'lishi mumkin. Ikkinchidan, bu nutqlar bayon usuliga ko'ra farqlanadi. Prokuror nutqida ayblanuvchi sodir etgan huquqbuzarlik yoki jinoyatning har bir holati va keltirilgan dalillarga qonun nuqtai nazaridan, hatto bu qonunlarning tegishli moddalari ko'rsatilib munosabat bildiriladi va baho beriladi. Prokuror ayblanuvchi yoki sudlanuvchini avvaldan bilmasligi mumkin va bilishi ham shart emas. Mana shu jihatlarda jamoatchi-qoralovchi nutqida

boshqacharoq tarzda kechadi. U qonunni prokurorchalik bilmasligi mumkin va shuning uchun uning nutqida qonun moddalariga asoslanib xulosa chiqarishlar ko'zga tashlanmaydi.

Himoya nutqi. Sud jarayonida shakllanadigan eng muhim nutqlardan biri advokatning himoya nutqi hisoblanadi. Chunki bu nutq sud jarayonida taqdiri sud hukmiga bog'liq bo'lib turgan, qanday jinoyatni sodir etganligi yoki qonunni buzganligidan qat'iy nazar, sudlanayotgan kishini insonparvarlik tamoyillariga ko'ra himoya qiladi. Sudlanuvchi o'z qilmishiga yarasha qanday jazo olishiga qaramasdan, himoya nutqi uning hayotida katta tarbiyaviy ahamiyatga ega bo'lishi mumkin. Bunday nutqning nafaqat sud jarayonida, balki ijtimoiy hayotda ham kishilarga ta'siri bo'lganligini ta'kidlash joiz. Shuning uchun ham bu nutqning axloqiy va ruhiy jihatlariga e'tiborsizlik bilan qarab bo'lmaydi.

Himoyachi uchun vaziyatning murakkabligi va noqulayligi shundaki, u sud jarayonida biron bir jinoyatni sodir etgan yoki aybdor deb topilgan kishining manfaatini himoya qiladi. Mutlaqo gunohsiz odamni himoya qilish holatlari sud tajribasida kam-kam uchrashi mumkin bo'lgan hodisadir. Shuning uchun ham uning nutq ohangida talabdan ko'ra iltimos ohangi ustun bo'ladi. Aybdor deb topilgan kishining ayblari qanchalik kam va tergov jarayonida prosessual qonunlar qanchalik ko'p buzilgan bo'lsa, iltimos ohangi talab ohangiga qarab o'sib boraveradi. Binobarin, bu holat advokat nutqining shakllanishiga, ayni paytda masalaning sudlanuvchi va advokat foydasiga hal bo'lishiga ijobiy ta'sir ko'rsatishi mumkin.

Sud jarayonidagi ayblanuvchining tomonida turib ijro etiladigan nutq himoya nutqi, advokat nutqi, hatto so'zlashuv uslubida himoyachi nutqi, oqlovchi nutqi deb yuritiladi. Qanday nomlanishidan qat'iy nazar, ular bir xil mazmunga ega va ular ayblanuvchining manfaatini aks ettiradi va advokat – himoyachining sud jarayonidagi o'rnini belgilaydi.

Bir narsani ta'kidlash adolatdan bo'lar ediki, shu paytga qadar sud jarayonida advokatlarning mavqeyi sezilarli darajada bo'lganligi kam kuzatilgan. Shundan kelib chiqib, ularning nutqiga ham e'tibor kam bo'lgan. Ammo mustaqillikdan keyingi davlatchiligimizda qonun ustuvorligi ta'minlangandan so'ng sud sohasida islohotlar boshlab yuborildi. O'zbekiston Respublikasining «Advokatura va advokatlik faoliyati to'g'risida»gi Qonunning qabul qilinishi, 1999 yildan «Advokat» jurnalining nashr etila boshlaganligining o'ziyoq huquqiy faoliyatning bu sohasiga e'tiborning jiddiy bo'lganligidan dalolatdir. Qonunga binoan davlat himoyasida bo'lgan advokatning burchi va mas'uliyati shu qadar yuksakki, uni faqat huquqshunoslik iqtidoriga va keng qamrovli bilimga ega bo'lgan kishigina uddalashi mumkin. Binobarin, til bilimi va madaniyati ham ana shu burch va mas'uliyat doirasida qaraladi.

Qonunning 6-moddasiga muvofiq advokat «fuqarolik ishlari hamda ma'muriy-huquqbuzarlik to'g'risidagi ishlar bo'yicha sudda, boshqa davlat organlarida, jismoniy va yuridik shaxslar oldida vakillikni amalga oshiradi; jinoiy ishlar bo'yicha dastlabki tergovda va sudda

himoyachi, jabrlanuvchining vakili, fuqaroviy da'vogarning hamda fuqaroviy javobgarning vakili sifatida ishtirok etadi». Advokat fuqarolarning huquqiy madaniyatini yuksaltirish va aholi orasida yuridik bilimlarni targ'ibot qilish ishida qatnashishi lozimligi ham Qonunda ko'zda tutilgan.

«Advokat» jurnali tahririyatiga Qashqadaryo viloyati Muborak tumani huquqiy maslahatxonasi mudirasi N.Ro'ziyeva quyidagi mazmunda xat yo'llagan: «Advokatning himoya nutqlari sudda asosiy o'rin tutadi. Lekin advokatlarning notiqlik san'ati to'g'risida biron jurnal yoki gazetada maqola uchratmaganman. Yoki advokatlar qanday himoya nutqi so'zlashi kerak, nimalarga e'tibor berishi kerakligi to'g'risida biron adabiyotga ko'zim tushmagan. Faqatgina rus advokatlarining bir-ikkita himoya nutqlari to'plamini o'qiganman. «Advokat» jurnali respublika advokatlariga yordam sifatida mamlakatimizdagi taniqli advokatlarning himoya nutqlarini e'lon qilib borsa, chunki ko'pchilikdan ko'p narsani o'rganish mumkin»².

Ana shu taklifga hamohang tarzda jurnal tahririyati tomonidan **eng yaxshi himoya nutqi** tanlovini e'lon qilib, ularning namunalari berib borilmoqda. Jumladan, 2002 yilning 2, 3, 4-sonlarida advokatlar B.Salomovning 2001 yilning 29 yanvarida Qashqadaryo viloyat sudida, Sh.Egamning fuqaro I.Inomova, A.J.Polvonovning A.K.Sapayev ishlari yuzasidan so'zlagan himoya nutqlari keltirilgan. Jurnal tahririyati-ning bu harakatini sud sohasidagi islohotlarning amaldagi ko'rinishi sifatida baholanishi lozim va bu materiallardan huquqshunos-talabalar uchun dars jarayonida foydalanish maqsadga muvofiq bo'ladi.

Yuqorida tilga olingan himoya nutqlari matni birmuncha keng bo'lganligi tufayli ularni bu o'rinda to'lig'icha keltirishning imkoni yo'q. Ammo himoya nutqiga til va uslub nuqtai nazardan qo'yiladigan talablarni sharhlashda ulardan bemalol foydalanish mumkin.

Himoya nutqi ham boshqa omma oldida amalga oshiriladigan oshkora nutqlar qatori o'z qurilishiga ega. Jumladan, nutq sud hay'atiga rasman murojaat qilish bilan boshlanadi. Nutqning maqsadi e'lon qilinadi. Aybning mazmuni, garchi sud jarayonida avval aytilgan bo'lsa ham, barcha tafsilotlari bayon qilinadi. O'zi himoya qilayotgan fuqaro sodir etgan huquqbuzarlik yoki jinoyat qonunning qaysi moddasiga nisbatan tasnif qilinayotganligi yana bir bor ta'kidlanadi.

Sudlanuvchini himoya qilish jarayonida mana shu tarzda nutqning mazmunini bayon etiladi. Huquqbuzarlik yoki jinoyatni yuzaga keltirgan holatlarning mohiyatini ochib berishga harakat qilinadi, sudda keltirilayotgan har bir ayblov va dalilga munosabat bildiriladi.

Bu o'rinda masalaning murakkabligi shundaki, hamma advokatlar ham haligacha sobiq tizim davridagi tazyiq ruhiyatidan tamomila ozod bo'lgan emaslar. Ularning boshqa bir qismida esa malakaviy mahorat yetishmaydi. Manfaatlar to'qnashuvi jarayoni esa himoya san'atini mukammal egallashni taqozo qiladi. Yana shunday holatlar ham bo'lib qoladiki, himoyachi

² «Advokat», 2002, 2-son, 14-bet.

qonunni yaxshi biladigan kishi sifatida sudlanuvchining aybini tan oladi. Shunday paytda ham insonparvarlik nuqtai nazaridan advokat o'z nutqini ayblanuvchi yoki sudlanuvchining javobgarligini yengillashtiruvchi holatlarga qaratishi lozim bo'ladi.

Shayxontohur tumani huquq maslahatxonasi advokati T.Namozov «Sudyalar himoyaga muhtoj» maqolasida juda ma'qul gaplarni yozgan: «Himoyamdagi T.Xoldorov ayblanayotgani bois, qonun menga uning aybsizligini isbotlash vazifasini yuklamaydi. Men himoyachi sifatida aybnomada, hukmda tasvirlangan voqyeani tiklashga asos qilib olingan dalillarning qanchalik darajada qonuniyligini asoslasam, bas. Demoqchimanki, agar jinoyat hodisasi deb tasvirlanayotgan hodisani tiklashga xizmat qilayotgan dalillar qonunga mos ravishda yig'ilgan bo'lsa, tasvirlanayotgan hodisa – **haqiqat**, aksincha, dalillar qonuniy bo'lmasa, tasvirlangan hodisa – **bo'hton**, uchinchi yo'l yo'q, ya'ni dalillar noqonuniy bo'lsa ham voqyea to'g'ri deb baholanmaydi»³.

Mabodo jinoyat bir guruh kimsalar tomonidan amalga oshirilgan bo'lsa, himoya jarayoni yana ham og'ir kechadi. Sudda alternativ nutqlar ijro etiladi. Ularni hamma vaqt ham muvofiqlashtirib bo'lmaydi va bu hol himoya kuchini zaiflashtiradi. Lekin bunday holatlarda ham barcha holatlar bo'lgani singari nutq mantiqi va etikasiga alohida e'tibor berilishi zarur bo'ladi.

Sud jarayonida jamoatchi-qoralovchilar qatnashgani sangari **jamoatchi-oqlovchilar** ham ishtirok etishlari mumkin. Ular odatda sudlanuvchi ishlayotgan korxona jamoasining vakillari bo'lib, qonun-buzarlik tasodifan yoki bilmasdan sodir etilganda, gunohkor hisoblangan kishi aslida jamoa o'rtasida izzat-hurmatga sazovor odam sifatida e'tirof etilganda qatnashishadi. Bunday nutq mazmunan ayblanuvchining ijobiy hislatlarini, jamoa o'rtasidagi obro'sini, ishga bo'lgan munosabati va intizomini bayon ettiradi. Yozma va og'zaki shaklda ifoda etiladigan bu nutq ma'lum ma'noda kafolat vazifasini o'taydi. Unda ayblanuvchining kelajakda o'z xatolarini tuzatishi mumkinligi va jamiyatga, oilasiga foydasi tegishi mumkinligiga ishonch bildiriladi. Bunday nutqlarning ijro etilishi asosan fuqarolik ishlarini ko'rib chiqish bilan bog'liq bo'lgan sud jarayonlariga xos sanalib, uning sudyaning ma'lum xulosaga kelishiga ijobiy ta'sir ko'rsatadi. Chunki mamlakatimizda olib borilayotgan demokratik islohotlarni yanada chuqurlashtirish jarayoni aynan shunday munosabatlarni taqozo qiladi.

O'z-o'zini himoya qilish nutqi. Ba'zan shunday holatlar ham bo'ladiki, aybdor tergov jarayonida tazyiqqa duch keladi va yolg'on ko'rsatmalar berishga majbur bo'ladi. Bunday paytda uning birdan bir xaloskori sud bo'lishi mumkinligi tushungan sudlanuvchi faqat sud jarayonidagina bo'lgan voqyeani ochiq-oydin aytib o'zini-o'zi himoya qiladi.

Yuqorida sud jarayonida amalga oshiriladigan nutqlar, ularning o'zaro farqli va umumiy

³ «Advokat», 2002, 2-son, 12-bet.

jihatlari xususida qisqacha ma'lumotlar berildi. Shu bilan birga, notqlik san'ati oldiga qo'yiladigan umumiy talablar ham mavjud bo'lib, talabalar ulardan ham xabardor bo'lishlari kerak. Bu borada turli tillarda, jumladan o'zbek tilida ham, adabiyotlar mavjud bo'lsa-da, asosan A.Saidov va G.Sarkisyanlarning «Yuridik til va huquqshunos nutqi» (Toshkent: Adolat, 1994, 32-b.) risolasidan foydalanishni tavsiya etamiz. Chunki bu kitobchada mualliflar huquqshunosning ma'ruzasi, ya'ni shakllantiradigan nutqi qanday bo'lishi lozim va bu ma'ruzalarning boshqa ma'ruzalardan farq qiladigan hamda o'ziga xos jihatlari nimalardan iborat, degan savollarga ham, qisman bo'lsa-da javob berishgan.

Xo'sh, bu talablar nimalardan iborat? Ta'kidlaganimizdek, yurist nutqni ham notqlik san'atining umumiy talablariga bo'ysunadi. Ya'ni, yurist-notiq, eng avvalo, ma'ruzaning maqsad va vazifasini aniq tasavvur qila olishi, mavzu atrofida ma'lumotlar to'plashi, tegishli adabiyotlar ustida ishlashi, keltirmoqchi bo'lgan faktlar oldindan tekshirilib ko'rilishi, boshqacha aytganda, u haqda yetarli bilimga ega bo'lishlari lozim. Shundan so'ng ma'ruza rejasi tuziladi va bunda albatta tinglovchilarning – auditoriyaning salohiyati inobatga olinadi.

Tinglovchilar bilan o'rnatilgan samimiy aloqa mavzuning ularga tez va oson yetib borishini ta'minlaydi. Ma'ruzani o'qib berishdan saqlanish o'z bilimini amaliyotga qo'llay bilish, davlatimiz olib borayotgan siyosatga, ijtimoiy hayotdagi dolzarb muammolarga bog'lay olish mahorati ma'ruzachiga nisbatan hurmat orttiradi.

Notiq hamisha mantiqiy izchillik va fikrlar uyg'unligini yoddan chiqarmasligi, bayondagi birinchi va ikkinchi darajali masalalarni farqlay olishi, xulosalarning asosli bo'lishiga harakat qilishi lozim. Ortiqcha tafsilotlarga, keraksiz dalillarga, yuzakilik, soxtalik, bachkanalik, balandparvozlikka yo'l qo'yib bo'lmaydi. Qanchalik tabiiylikka erishilsa, bahsli, munozarali masalalar o'rta tashlansa, u shunchalik nutqiy mahorat belgisi sanaladi.

Nutqning tozaligiga e'tibor berish, unda chet so'zlarni o'rinsiz ishlatishga yo'l qo'ymaslik, ortiqcha – parazit so'zlarni, shtamlarni ishlatmaslik hamda nutqni shirinso'zlik bilan, yoqimli ohangda, ravon talaffuz etishga harakat qilish, mujmallikdan qochish ham fazilat sanaladi. «Asosiy fikrni ovozni past-baland qilish, ohangni o'zgar-tirish, imo-ishora, qaytarish bilan mohirona uqdirish zarur. – deb ta'kidlashadi risola mualliflari. - Notiqning fikri ham, imo-ishorasi ham, nutqi ham bir qolipda bo'lmasligi lozim. Ma'ruzaning jonlanishiga, tinglovchilarning diqqatini tortishga ko'maklashadigan ta'riflar, taqqoslashlar, maqol va matallar, qochiriq so'zlar, ba'zi hollarda hazil-mutoiba gaplarni qo'shishdan qo'rqmaslik kerak. Lekin ularni suiiste'mol qilish bilan ma'ruza materialiga putur yetkazish yaramaydi.

Nutq so'zlanayotgan paytda notiqning o'zini to'g'ri tuta bilishi, oddiylik va tabiiylikka harakat qilishi, doimo o'zini kuzatib borishi, ortiqcha harakatlarga yo'l qo'ymasligi, hatto

kiyinishda ham kamtarlik ustuvor bo'lishi kabi jihatlar ham muhimdir. Tinglovchilardan tushgan savollarga ham mumkin qadar qisqa va aniq javob berishga harakat qilish lozim.

2.3 Turli toifadagi qonunbuzarlarning psixologik jihatlari

Xulq-atvori og'ir o'smirlarning shaxsi shakllanishiga ko'pchilik hollarda oilaviy shart-sharoitlar, ota-onaning yoki qarindoshlarning ichkilikbozligi, ularning axloqqa zid xulq-atvorlari salbiy ta'sir o'tkazadi. Tarbiyasi og'ir o'smirlar uchun odatda o'qishga umum e'tirof etganiga nisbatan zid munosabat xos bo'lib, oxir-oqibatda bu uni sinfiga, maktabga, bilim yurti jamoasiga qarama-qarshi qilib qo'yadi. Aksariyat hollarda huquqbuzarlar o'smirlar – ichki salbiy munosabatlar natijasida maktab jamoasida o'z o'rnini topa olmagan o'quvchilar bo'lib chiqadi.

O'smirlik (11-15 yosh) davri, asosan biologik jihatdan o'tkinchi bosqich bo'lib hisoblanadi. Ijtimoiy nuqtai nazardan o'smirlik ilk ijtimoiylashuv davrini bildiradi. Biroq o'smirlik bolalik davriga nisbatan ziddiyatliligi bilan farqlanib turadi.

Navqironlik (14-18 yosh) go'yo bolalik bilan yetuklik o'rtasidagi uchinchi bir dunyo. Yoshlik dastlabki ijtimoiylashuvning yakuniy pallasi hamdir. Yoshlikning ijtimoiy daraja va mavqeiga nisbatan oraliq holati yoshlar psixikasida o'ziga xos aks etadi.

Tengdoshlari bilan doimiy muloqotga ehtiyojning kuchayishi, o'zligini tasdiqlashga intilish, tengdoshlarining o'zi haqidagi fikr mulohazalariga ta'sirchanlik - o'smirlik davriga xos xususiyatlardir. Nomaqbul oilaviy shart - sharoitlar tarbiyasi og'ir o'smir shaxsining shakllanishidagi eng asosiy omil bo'lib hisoblanadi. Ota - onalarning janjallari, o'smirlarning jismoniy jazolanib turilishi, tabiiy ravishda tormozlashuv me'yorlari buzilishiga, qiziqqonlik, o'ta qo'zg'aluvchanlik, o'zini qo'lga ola bilmaslik kabi illatlarning tug'ilishiga sabab bo'ladi.

Voyaga yetmagan o'smirlar uchun guruhga uyushib huquqbuzarlik qilish xosdir, chunki ayrim jinoyatlarni yolg'iz o'smir uddalay olmaydi. Voyaga yetmaganlarning jinoiy xulq-atvorlari tahlili mobaynida 4 toifadagi huquqbuzarlik omillari aniqlangan bo'lib, ularning ijtimoiy xavfli ko'rinishlari quyidagichadir:

1. Tasodifiy, shaxsning umumiy yo'naltirilganiga zid keladi.
2. Shaxsiy yo'naltirilganlikning beqarorligi ehtimoli mavjud, sabab va vaziyat taqozosiga monandlashadi.
3. Shaxsning salbiy yo'naltirilgani natijasida vaqtini o'tkazadigan muhit, payt va xatti-harakatlarini bevosita turlarini tanlash, jinoiy xulq - atvordan ibrat olish bilan bog'liq.
4. Shaxsning jinoiy ko'rsatmasi mavjud bo'lib, faol izlanish sabab va vaziyatni tashkil qilish, jinoiy faoliyatni amalga oshirish, amaldagi ijtimoiy normalarga barqaror tarzda zid baho va munosabatda bo'lishga olib keladi.

2. Balog'at yoshiga tegishli bo'lgan tergov ishlarining psixologik xususiyatlari.

Dastlabki tergovda voyaga yetmagan huquqbuzarning shaxsi quyidagi reja bo'yicha o'rganiladi:

1. Nasliy - biologik omillar: ota - onalardan birining asab va kasalliklarga moyilligi,

homiladorlik patologiyasi, ichkilikbozlik, narkotik moddalar iste'mol qilishning salbiy ta'siri kabilar.

2. O'smirning eng yaqin ijtimoiy muhiti: oila, ota - onalarning, aka - uka, opa - singillar ijtimoiy - iqtisodiy mavqelari, oiladagi o'zaro munosabatlar, o'smirlarni tarbiyalash xususiyatlari, o'qishga munosabat, o'qituvchilarga munosabat, do'stlar guruhida o'smirning mavqei.
3. O'smirning shaxsiy ta'rif-tasnifi: xarakteri va temperamentining xususiyatlari, qadriyat-motivatsiya majmui, o'smirning qanday qadriyatlarga yo'naltirilgani, da'volarning darajasi, o'z-o'zini baholashi va o'z-o'zini baholashdagi murosasozlik ehtimollari, kasb-korga munosabati – ijtimoiy tanlov, o'smir qadriyatlari doirasida kasb tutgan o'rni, kelajakdagi huquqiy ongi.
4. O'smirning huquqiy ongi. Voyaga yetmagan gumondor yoki ayblanuvchining turmushi va tarbiyaviy sharoitlarini bilib olish uchun boshqa sohalarni: oilasi, ish yoki o'qish joyini ham o'rganish lozim.

Voyaga yetmaganni so'roq qilishga puxta tayyorgarlik ko'rish lozim. Bunday so'roqning bir necha bosqichlari mavjud: jumladan, so'roqning dastlabki bosqichida tergovchi voyaga yetmagandan uning anketa ma'lumotlarini og'zaki bilib oladi, bu o'rinda tergovchi so'roq qilinayotgan shaxsni to'g'ri chamalay bilishi muhimdir. So'roq qiluvchi va so'roq qilinuvchining psixik aloqaga kirishishi so'roq ikkinchi bosqichining mohiyatini tashkil etadi. Bu bosqichda suhbatning mavzui ish mazmuniga u qadar aloqador bo'lmagan gaplar, voyaga yetmaganning tarjimai holi, o'qishi, qiziqishlari kabilarni qamrab oladi. So'roqning bosh qismida tergovchi jinoiy ish bo'yicha asosiy ma'lumotlarni olishi lozim. Odatda puxta o'ylab uyushtirilgan suhbatda tergovchi so'roqda olgan ma'lumotni yozib chiqadi va yozma nusxasini so'roq qilinayotganda ko'rsatadi, u yozilgan gaplarning asliga to'g'riligini tasdiqlab imzolab beradi.

Bayonnomada (protokol) voyaga yetmaganning nutqiga xos xususiyatlarni saqlab qolish muhim ahamiyatga ega. So'roqda aniqlangan voyaga yetmaganning shaxsiga xos xususiyatlar (shafqatsizlik, tajovuzkorlik, mehribonlik, rostgo'ylik, yolg'onchilik) shubhasiz, tergovchi so'roqning to'g'ri taktikasini tanlashga yordam beradi. Voyaga yetmaganlar tomonidan sodir etilgan jinoyatlar ichida guruh hamda takror epizodlar ijtimoiy xavfliligi bilan alohida ajralib turadi. Voyaga yetmaganlar har xil sabablarga ko'ra bunday guruhlarning tashkilotchilarini sir saqlashga, hammma aybni o'z gardanlariga olishga urinadilar. Odatda voyaga yetmaganlardan iborat jinoiy, ma'muriy javobgarlikka tortilgan, tajribali, boshqalarga nisbatan jismoniy baquvvat balog'at yoshidagi shaxslar uyushtiradilar. Shuning uchun tergovchi sodir etilgan jinoyatdagi «etakchi»ning rolini fosh etuvchi dalillarni topmog'i, uning «qahramon» qiyofasini puchga chiqaruvchi, asl qiyofasini ko'rsatuvchi faktlarni ham qo'lga kiritmog'i lozim.

So‘roqning muvaffaqiyati natijasi so‘roq qilinadigan joyni, shart-sharoitni tanlashga ko‘p jihatdan bog‘liqdir. So‘roq qilinayotganga «qadrdonlarcha» munosabatga, uni qo‘rqitadigan shart-sharoitlarga yo‘l qo‘yib bo‘lmaydi.

Tintuv paytida ma’lumot olishning asosiy usullaridan biri kuzatish va uning natijalarini darhol tahlil qilish bo‘lib hisoblanadi. Ayniqsa tintuv qilinayotgan shaxs xulq - atvori juda ko‘p narsalarni aytib berishi mumkin. Bundan kuzatishdan imkoni boricha to‘laroq va haqqoniyroq natijaga erishish uchun bevosita tintuv vaziyatida tintuv qilinayotgan shaxs xulq - atvorining psixologik qonuniyatlaridan har tomonlama boxabar bo‘lish zarur.

Narsa va ob’ektlarni ko‘zdan kechirish bilan birga uy hayvonlari va qushlarga e’tibor berish ham muayyan natija berishi mumkin, ba’zan ularning bezovtalanishi yashiringan odam yoki yashiringan narsalarning joyini ko‘rsatib beradi. Uy hayvonlarining ko‘pchiligi murda bilan yonma-yon turganlarida qattiq bezovtalanadilar, itlar begona odam bo‘lsa, hurkiy boshlaydi va h.k.

Tintuv paytida nishonga oluvchining (supervizor) ishtiroki maqsadga muvofiq bo‘ladi, u izquvarning kamchiligini tuzatishi, sezdirmay kimga e’tibor berish zarurligini ko‘rsatishi (yashikni surish, eshikchani ochish) mumkin. Tintuv o‘tkazayotgan xodimlar jinoyatchilar turli yashirin joylarni hozirlayotganlarida bir qator psixologik omillarni ham e’tiborga olishlarini nazardan soqit qilmasliklari kerak.:

1. Charchoq va avtomatizm tufayli diqqatning susayishini hisobga olish. Shuning e’tiborga olib, qidirilayotgan hujjatni ko‘pincha kitob javonining o‘rtasidagi kitobning ichiga solib qo‘yadilar.
2. Jirkanishga umid bog‘lash (go‘ng orasiga yoki xojatxona tagiga ko‘mib qo‘yadilar).
3. Tergovchi tomonidan odamgarchilik va boshqa insoniy tuyg‘ularning namoyon bo‘lishini hisobga olish (daliliy ashyo bo‘lishi mumkin bo‘lgan narsani og‘ir yotgan to‘shak ostiga, chaqaloqning karavotiga, yaqin qarindoshlarining qabriga yashirish).
4. Predmetni ataylab ko‘zga tashlanib turadigan joyga tashlab qo‘yish.
5. Ikkita bir xilda yashirin tuynuk yasash, bunda jinoyatchilar bitta bo‘sh tuynukni topishganidan keyin shunaqa tuynukni axtarib ko‘rmaydilar, deb hisoblaydilar.
6. Tintuv paytida mojaro qo‘zg‘ash va mojaro paytida qidirilayotgan narsani yashirishga ulgurishday hiylani ham qo‘llash mumkin. Yuqoridagi shartlarga rioya etgan barcha ma’lumotlarni tahlil qilganda tergovchi tintuv vazifasining birinchi bosqichini to‘g‘ri hal qiladi.

Tintuv o'tkazish tergovchidan turli-tuman psixologik xislatlar, xususiyatlar, professional bilim, qobiliyat va malakani talab qiladi. Tintuv o'tkazishga tayyorgarlik mobaynida tergovchi quyidagi savollarga javob topishi talab qilinadi:

1. Nimani qidirish kerak, qidirilayotgan predmetlarning shakl-shamoyili qanday?
2. Tintuv qilinajak ob'ektning tuzilishi: maydoni, qanday reja bilan qurilgani, xona, eshik, derazalarning soni, mebellar va ularning joylashishi kabilar.
3. Tintuv paytida gumonlanuvchidan boshqa yana kim bo'lishi mumkin?
4. Tintuv qilinajak ob'ektning tabiiy va sun'iy yoritilishi qanday?
5. Ob'ektda telefon yoki boshqa aloqa vositalari (ratsiya, qo'ng'iroq, selektor) bormi?
6. Qidirilayotgan predmetlar qaerda bo'lishi mumkin?
7. Tintuvni kim o'tkazadi? Ular qanday texnika vositalarini olishlari kerak?
8. Tintuvni qay paytda o'tkazish muhim?
9. Tintuv paytida tintuv bo'linmasi bilan qanday aloqa qilish mumkin?

Tergovchi tintuv vaqtida tashkiliy ishlarni uyushtiradi. Uning muhim vazifasi tintuv jarayonida tintuv o'tkazayotgan shaxs bilan og'zaki muomala (kontakt) o'rnatishdan iborat. Tintuv paytida tintuv qilinayotgan shaxsni imkoni boricha ko'proq suhbatiga tortish, u yoki bu predmetlarning zarurati haqida savollar bilan suhbatga tortish ham muhim ahamiyatga ega. Uning so'zlari ichki holatini, tergovchining ayrim harakatlariga munosabatini sezdirib qo'yadi. So'z ohangi, gapirish uslubi – boshqa taassurotga nisbatan kishining haqiqiy kechinmalari, munosabati to'g'risida ko'proq ma'lumotlarni berishi mumkin.

Tergovchi tintuv mobaynida axloqiy - etik normalar doirasidan chiqmasligi, boshidan oxirigacha xushmuomalalik bilan ish ko'rishi, qo'pollik, haqorat, qo'rqitish kabilarga yo'l qo'ymasligi zarur. U uyi tintuv qilinayotgan shaxsga nisbatan nafrat, g'azab, jirkanish hislarini yashira oshili, o'zini tuta bilishi, oilaning boshqa a'zolarining izzat-nafsiga tegmasligi kerak, ya'ni tergovchi odob doirasida ishlashi lozim.

Tintuv o'tkazilayotganda ayblanayotgan shaxsning ma'lumoti, madaniyati, kasbi, bilimlari, aql-idrok qobiliyatlarini e'tiborga olish muhimdir. Tintuv joyida qat'iy intizom o'rnatilishi, asosiy ishdan chalg'ituvchi ortiqcha gap-so'zlar, xonama-xona yurishlar taqiqlanishi zarur.

Tintuv va hibsga olishning o'xshashligi shundaki, har ikkala holda ham gumonlanuvchining shaxsi o'rganiladi, sharoit tahlil qilinadi. Shuni unutmaslik kerakki, gumonlanuvchi ijobiy xislatlar bilan ta'riflangan bo'lsada, u qarshilik, jumladan, qurolli qarshilik ko'rsatishi ehtimolini nazardan soqit qilib bo'lmaydi. Qarshilik ko'proq hibsga olayotganda uchraydi, ayniqsa retsdivistlarni qo'lga olishda. Hibsga olishda shoshmaslik kerak, chunki gumonlanuvchi o'zini tuta olmasligi, affekt holatiga tushib qolishi mumkin. Jinoyatchini taslim

bo'lishga ko'ndirish psixologik ta'sirning samarali vositasidir. Bunday paytlarda tergovchida shunday qobiliyat bo'lishi kerakki, u jinoyatchining psixologik xususiyatlarini yaxshi bilishi, ulardan oqilona foydalana olishi lozim. Muzokarada uning ko'ngliga yaqin, fikrlari bilan hisoblashadigan kishilarni: uning ota-onasi, farzandlari, qarindoshlari, do'stlarini taklif qilish maqsadga muvofiqdir.

Ko'zdan kechirish – alohida tergov harakati bo'lib, jinoyat izlarini boshqa daliliy ashyolarni izlab topish, voqea tafsilotini, hamda ushbu jinoiy ishga aloqador boshqa tafsilotlarni aniqlashga qaratilgan. Ko'zdan kechirish boshqa tergov harakatlarining tarkibiy qismidir. Voqea joyini ko'zdan kechirish tergov harakatlarining eng muhim sharti bo'lib, ana shu paytda olinadigan ma'lumotlar, taassurotlarning o'rnini boshqa tergov harakatlari yordamida to'ldirib bo'lmaydi. Masalan, jinoyatchining qo'l va oyoq izlari, foydalangan qurollari muhim dalil bo'lib xizmat qiladi. Voqea joyini ko'zdan kechirish zudlik bilan o'tkazilishi kerak. Chunki izlar, daliliy ashyolar g'oyib bo'lishi, hodisaga guvoh bo'lganlar voqeaning tafsilotini bayon etishda unutib qo'yishlari mumkin.

Ko'zdan kechirish mobaynida, ma'lumotlarning tanqisligi sharoitida qiyin masalalarni fikran hal etishga to'g'ri keladi, tergovchi bunday vaziyatda qo'lga kiritilgan faktlar, ayrim tafsilotlarga tayanadi, o'z bilimlari, professional va hayotiy tajribasidan ko'pincha hissiy (intuitiv) ehtimol va taxminlar darajasida foydalanadi.

Tergov intuitsiyasi – ma'lumotlar qariyb yo'q bo'lgan bir vaziyatda ijodiy vazifani tez, bevosita hal etishga oid tajriba va bilimlardan orttirilgan aql - idrok qobiliyatidir. Taxminning tekshirib ko'rilishi jarayonida dastlabki versiya puch bo'lib chiqishi mumkin. Bu psixologik nuqtai nazardan ikki oqibatni keltirib chiqaradi. Avvalo yetishmayotgan ma'lumotlarni qidirishga kirishiladi.

Voqea sodir etilgan joyini ko'zdan kechirish faqat jinoiy tafsilotlar haqida ma'lumotlar olishgina emas, balki jinoyatchi shaxsining xususiyatlarini (jismoniy, biologik, psixologik) bilib olish imkonini beradi. Voqea joyida jinoyatchining yoshi, jinoyatchilarning kasb - kori, professional malakasi, bilim va ko'nikmalari ko'zgudagidek aks etadi. (masalan, montyor signalizatsiyani o'chirib qo'yishga, slesar seyfni buzishga usta) Voqea joyini ko'zdan kechirish jarayonida o'tkaziladigan psixologik tahlil sodir etilgan jinoyat motivi xususida xulosa chiqarish imkonini tug'diradi. Jinoyat xarakter chizgilari – ochko'zlik, shafqatsizlik; irodaviy xususiyatlar – jangarilik, qo'rqqoqlik kabilar aks etishi mumkin.

Voqea joyidagi tafsilotlar ba'zan sub'ekt tomonidan jinoyat sodir etilayotgan paytdagi uning ayrim psixologik hissiy - emotsional holatini ham aks ettira oladi.

Yuzlashtirish – muqaddam alohida - alohida so‘roq qilingan shaxslarni ularning ko‘rgazmalaridagi ziddiyatlar, noaniqliklarni bartaraf etish maqsadida birgalikda so‘roq qilishdan iborat tergov harakatidir. Yolg‘on ko‘rgazma berayotgan shaxsni fosh etish uchun muayyan tarzda ta’sir ko‘rsatish zaruriyati tug‘iladi, yuzlashtirishning maqsadi ham shunda, haqiqatni isbotlashdir. Yuzlashtirishda tergovchining roli juda murakkab va muhim ahamiyatga ega. U yuzlashtirishni o‘tkazishga shunday tayyorgarlik ko‘rishi kerakki, haqiqat yolg‘on ustidan tantana qilsin.

Yuzlashtirish natijasida ikki guruh omillar ta’sirini o‘tkazadi. Birinchisiga, yuzlashtirilayotgan kishilarning ijtimoiy-psixologik xususiyatlarini e’tiborga olgan holda, ko‘rgazmalaridagi ziddiyatlarning sababini aniqlab beruvchi omillar kiradi. Ikkinchidan, bunday ziddiyatlarga yuzlashtirishga kelganlardan birining yoki ikkalasining ko‘rgazmalari avval-boshdanoq uydirmaligi sabab bo‘lishi mumkin. Bunday hollarda tergovchi uydirma ko‘rgazmalarning motivini bilmog‘i zarur, ular esa xilma-xil bo‘lishi mumkin: jinoiy javobgarlikdan qutulib qolish yoki yengilroq jazo olishga intilish, sheriklarni aytib qo‘yishni istamaslik, qarindoshlik hislari, o‘ch olishlaridan qo‘rqish, pulga sotilish, uyat, soxta sadoqat – tuyg‘usi kabilar shu jumladandir.

Yuzlashtirishni o‘tkazadigan vaqtni tanlashning ahamiyati katta. Uni o‘tkazishda shoshqaloqlik qilmaslik, kechikmaslik muhimdir. Yuzlashtirishni o‘tkazishga tayyorgarlik saviyasi alohida ahamiyatga ega. Tayyorgarlikni tergovchining tashkiliy-texnikaviy, hamda barcha qatnashchilarning psixologik hozirligi, deb tushunmoq lozim. Tergovchi yuzlashtirishda vijdon amri bilan qatnashayotgan shaxsning ko‘nglini xotirjam qilishi, jinoyatchi tomonidan xavf-xatar, xatti-harakatlarning sodir etilmasligiga kafolat berishi kerak. Yuzlashtirish qatnashchilarini shartli ravishda vijdonan hamda vijdotsizlarcha (yolg‘on) ko‘rgazma beruvchi, deb olinadi.

Tergov amaliyotining tahlili shundan dalolat beradiki, yuzlashtirish yolg‘on ko‘rgazma berayotgan kimsa uchun kutilmaganda, to‘satdan o‘tkazilishi eng yuqori samara beradi. Yuzlashtirishni o‘tkazishdan avval tergovchibarcha materiallarni (hisob-kitob hujjatlari, suratlar, bayonnomalardan ko‘chirmalar, daliliy ashyolar) taxt qilib qo‘yishi kerak. Yuzlashtirishdan avval tergovchining fikrlari tiniq, kayfiyati soz, tergov harakatining ijobiy natijasiga ishonchi komil bo‘lishi lozim. Har ikkalasi ham baravariga yolg‘on ko‘rgazma berayotgan ikki jinoyatchi o‘rtasida yuzlashtirishni o‘tkazish tergovchi uchun murakkab bo‘lib, katta mas’uliyatni talab qiladi.

Yuzlashtirish haqiqatni ataylab, qasddan buzib ko‘rsatishga uringan, ko‘rgazmalari uydirmadan iborat shaxslarga katta ta’sir kuchiga ega. Yuzlashtirish ko‘pincha ularning

tergovdagi xulq-atvorini keskin o'zgartirib yuboradigan hal qiluvchi bosqich rolini o'taydi. Yuzlashtirish odatda tergovchining xizmat xonasida o'tkaziladi. So'roq qilinayotganlarni doimo tergovchi ko'z o'ngida bo'ladigan tarzda o'tkazilishi darkor. Yuzlashtirishning ta'sir kuchi yana shundaki, unda «ko'zning ko'zga tushish samarasi» yashiringan. Yuzlashtirish chog'ida faqat tergovchi qarshisida emas, so'roq qilinayotgan taniydigan yana bir kishi qarshisida ko'rgazma beriladi.

Jinoyatni ochishda guvoh va jabrlanuvchilarni so'roq qilish muhim ahamiyatga ega. Ularni so'roq qilishga tayyorgarlikning psixologik jihatlarini quyidagi tarkibiy qismlardan tashkil topgan:

- ish materiallari va aniqlik kiritilishi lozim bo'lgan masalalar tahlili;
 - so'roq qilinadigan shaxsni chuqur, har tomonlama o'rganish;
- so'roqni mavaffaqiyatini ta'minlaydigan zarur sharoitlarni yaratish;
- tergovchining xulq-atvori, o'zini psixologik jihatdan tayyorlashi.
 - so'roq qilish uchun avvaldan puxta reja tuzib olinadi, jumladan beriladigan savollarning tushunarli bo'lishi, aniqligi, mazmunligi, tartibi belgilab olinadi. So'roqdan avval ish materiallarini chuqur o'rganish, ashyoviy dalillarni tahlil qilish zarur.

So'roqqa kirishishdan avval guvohlar va jabrlanuvchilar shaxsiyatini o'rganish talab etiladi. Rasmiy so'roq oldidan tergovchi kuzatish orqali guvoh yoki jabrlanuvchining tashqi qiyofasi, madaniyati nutqining alomatlarini, yuz ifodasi, hayronlik, loqaydlik, hayajon, qo'rquv, xotirjamlik kabilarni aniqlasa bu ishga ijobiy ta'sir etadi. Guvohlar va jabrlanuvchilarni chaqirtirish vaqti va usuli, tergov harakati o'tkazilayotgan sharoit va joy alohida psixologik ahamiyatga ega.

Bezorilik, bosqinchilik, qiz iffatiga tegish kabi jinoiy ishlarning tergovida zudlik bilan so'roq qilish bilan birga jinoyatchini qidirib topish va hibsga olish uchun zarur ma'lumotlar jamlanganidan keyin guvohlar va jabrlanuvchilarni qaytadan batafsil so'roq qilish maqsadga muvofiqdir. Psixologik nuqtai nazardan guvoh yoki jabrlanuvchini so'roqqa chaqirish vaqtini belgilayotib, ish manfaatlari bilan chaqirilayotganlarning imkoniyatlari va manfaatlarini uyg'unlashtirishga intilish lozim. So'roq joyini tanlayotgan paytda axloqiy-etikaga oid mulohazalarni ham e'tibordan soqit qilmaslik kerak. Yoshi o'tib qolgan yoki bemor kishilarni tergovchi huzuriga chaqirtirish tavsiya etilmaydi. Tergovchining o'zi ularni oldiga borishi va o'sha joyning o'zida so'roq qilish kerak.

Tergovchining tashqi ko'rinishi, xulq-atvori, sarishtaligi, kirishimlilik, odamgarchiligidan dalolat berib, ust-boshi, e'tiborlilik, xushmuomalaligi bilan hamohang ravishda so'roq qilinayotganda ishonch, muomalaga hozirlik kayfiyatini uyg'otadi. So'roqning

dastlabki kirish qismida tergovchi so‘roq qilinayotgandan asosan tarjimai holi, yashash va ishlash joyi kabi ma’lumotlarni oladi. (anketa) So‘roqning ikkinchi bosqichi psixologik muomala o‘rnatishni taqozo etadi, bunda so‘roq qilinayotganning hozirjavobligi, rostmana ko‘rgazma berishga shaylangani tushuniladi. Tergovchi guvohlar va jabrlanuvchilarning ko‘rgazmalariga ishonch bilan munosabatda bo‘lishi kerak. U tomonidan qo‘pollik, istehzo, nazar-pisand qilmaslik, ishonchsizlik, shoshqaloqlik, e’tiborsizlik kabi muomala ko‘rinishlariga yo‘l qo‘yib bo‘lmaydi.

Jinoiy ishlar tergov qilinayotganda ko‘pincha guvohlar va jabrlanuvchilarni tergov qilayotib, ular aytib berayotgan voqea sodir bo‘lgan aniq vaqtini tasdiqlab olish zaruriyati tug‘iladi. Ana shu maqsadda xronometraj usuli ham qo‘llaniladi. Guvohlar va jabrlanuvchilar uchun xotirasidan o‘chmaydigan birorta sana, voqea eslatiladi, keyin tergovchi o‘sha kuni uning yana nimalar bilan shug‘ullangani, faoliyatining maromi, muddatlari bilan qiziqib, shu orqali o‘sha kunni tergovni qiziqtirayotgan daqiqalargacha vaqt jadvaliga soladi. So‘roq mobaynida so‘roq qilinayotgan kishining kechinmalarini aniqlab olish maqsadida uni diqqat bilan kuzatishi lozim, negaki uning ichki kechinmalari tashqi qiyofasida, xulq-atvorida eshitgan ma’lumotlarni qanday qabul qilishda, nutqning xususiyatlarida yaqqol ko‘zga tashlanadi. Masalan, joni xalqumiga kelishi, nutq tezligi va maromining o‘zgarishi, to‘xtamay gapirishi, ovozini balandlatishi, chala - chulpa so‘zlashi kabilar qattiq hayajonlanayotganligidan dalolat beradi. Bunday psixologik kechinmalarni qayd etish so‘roq berayotgan kishi qay paytda rost, qay paytda yolg‘on aralashtirib yoki bo‘rttirib gapirayotganini aniqlab olishga ko‘maklashadi.

Sud hukmi bilan aybi tasdiqlangunicha qadar gumondor (shubhalanuvchi) va ayblanuvchi jinoyatchi bo‘lib hisoblanmaydi. Biror bir jinoyatda ayblanayotgan yoki gumonlanayotgan kimsa jinoyatchi bo‘lmasligi mumkin. Gumondorga nisbatan ayblanuvchi odatda, jinoiy ish holati, tergov ega bo‘lgan dalil isbotlar mazmunidan ko‘proq ogoh bo‘ladi. Biroq dastlabki tergovda gumondorda ham, ayblanuvchida ham o‘xshash psixologik holatlar, motivlar, hayajon, buning oqibatida o‘ziga xos xulq - atvor kuzatiladi.

Ayblanuvchi xulq - atvorini ozodlikdan mahrum bo‘lish, odatiy turmush tarzidan ayrilib qolishi, jinoyatchi mahkumlar orasiga tushib qolishdan qo‘rquv hissi tug‘diradigan kuchli psixologik tushkunlik natijasida shakllanadigan motiv ham idora qilishi mumkin. Bunday hissiyotlar birinchi marta jinoyat sodir etgan kishilarga xosdir, ular jinoiy javobgarlik mazmunidan bexabar bo‘lganliklari bois o‘ta tushkun kayfiyat girdobida qoladilar. Shuning uchun bunday shaxslarga tergovchi haqiqatni aytsa jinoyatiga jazo berish yengillashi mumkinligiga ishontirishi zarur.

Uyushgan jinoiy guruh tarkibida sodir etilgan jinoyatda ayblanayotgan shaxs sheriklariga har xil munosabatda bo'ladi. O'ziga homiylik qilib, qo'llab - quvvatlab turgan shaxsni yana yordam berishidan umidvor bo'lib, jinoyatga taalluqligini yashirishga urinadi.

Shaxsning xulq - atvori ko'p jihatdan unga dominanta – ushbu daqiqada bosh miyaning katta yarim sharlari qobig'idagi har qanday ta'sirotda o'ta qo'zg'aluvchan bo'lgan hamda boshqa asab markazlari faoliyatiga tormozlantiruvchi ta'sir ko'rsata oladigan hukmron qo'zg'alish o'chog'ining ta'siriga bog'liq bo'ladi. Odamda dominanta hayotining muayyan darajadagi jiddiy pallasida yuz bergan voqea uchun qayqurishi, qattiq hayajonlanishi, qo'rquv, umidsizlik hislariga berilishi tufayli tug'iladi. Dominanta ta'siri ostida jinoyatchi go'yo uning xavfsizligini ta'minlaydigan, fosh etilishidan saqlaydigan hamda keyingi jazodan asrab qoladigan xatti-sharokatlarini sodir etishga kirishadi. Uning faoliyati o'ziga xos himoyalaniş tusini oladi. Biroq uning aynan shunday harakatlari tergovchining e'tiborini tortadi, uni sodir etilgan jinoyatga aloqador, deb taxmin qilishga asos bo'ladi. Bunday xatti-harakatlar «xulq - atvor dalili» deb nomlanadi.

Xulq - avtor dalillari turli xil kurinishda bo'ladi. Ular orasida eng ko'p uchraydiganlari: chalg'ituvchi sahnalar tayyorlash, yolg'on tasdiq (alibi) yaratish va kutilmagan javoblar kabilardir. Amaliyotda ko'pincha ayblanuvchi o'ziga bo'xton qilgan holatlarda soxta murosalı vaziyatlar tug'iladi. Agar ayblanuvchi haddan tashqari ta'sirlanuvchan, tashqi ta'sirotlarga beriluvchan, o'z nuqtai nazarini himoya qilishdan ojiz, irodasiz, ruhiy hayajonlanishga bardoshsizligi bilan ajralib tursa, o'ziga tuxmat qilish ehtimoli ortadi. Buning eng tarqalgan motivi haqiqiy aybdorni ko'rgazma berishdan xalos qilishga urinishdir. (yaqin qarindoshlik ta'sirida)

Yuridik psixologiyaning fan sifatidagi vazifasi tergovchilarning ijodiy izlanishlari samaralarini nazariy asoslab berishdan iboratdir.

Xulosa

Yuridik faoliyatning shakllanishiga jamiyat rivoji bilan birgalikda yurisprudensiya va til taraqqiyoti ta'sir o'tkazadi. Chunki huquqiy hayotda sodir bo'layotgan barcha o'zgarishlar eng avvalo tilda, binobarin yuridik matnlar tilida o'z aksini topadi. Qonunlar, farmonlar, qarorlar, farmoyishlar, buyruqlar, yo'riqnomalar va boshqa shakldagi huquqiy-me'yoriy hujjatlar uchun umumiy me'yorlar bo'lishi bilan birga, tildan foydalanishda o'z me'yorlari ham mavjud. Ularning har biri o'z shakli va mazmuniga ega. Shuning uchun ham o'zbek yuridik tilining amalda bo'lish xususiyatlarini rasmiy uslub doirasida taguslub (podstil) sifatida o'rganish maqsadga muvofiq bo'ladi.

«Huquq rivojlanishining tarixiy tajribalarini o'zida mujassam qilgan yuridik til inkor etish mumkin bo'lmagan qadriyat, huquqiy madaniyatning ajralmas qismidir, - deydi prof. A.Saidov. Milliy tillarda mavjud bo'lgan barcha tafovutlarga qaramasdan hamma mamlakatlarning yurisprudensiya tilida umumiylik bor. Bu hayotdagi umumiy qonunlar va tamoyillar bilan izohlanadi»⁴. «Yuridik til bir necha turlarga bo'linadi. Bular: qonun tili yoki davlat yuridik tili, ilmiy yuridik til, sud tili, huquqshunos-muallim tili, publisist-yurist tili, prokuror tili, advokat tili va boshqalardir».

Sanab o'tilgan bu ko'rinishlarning har biri tilshunoslar va huquqshunoslar hamkorligida o'rganilishi bundan keyin yaratiladigan huquqiy-me'yoriy hujjatlarning, ayniqsa qonunlarning mukammal bo'lishiga olib keladi. Sh.Ko'chimovning «Huquqiy normalarni o'zbek tilida ifodalashning ilmiy-nazariy muammolari» mavzusida filologiya fanlari doktori ilmiy darajasini olish uchun yozgan dissertasiyasi (2003) mana shu muammolarning ma'lum qismini hal etishga qaratilgan dastlabki yirik hajmdagi tadqiqotdir.

«Sir emaski, respublikamiz mustaqillikka erishgunga qadar o'zbek tili rasmiy ish yuritishda, turli davlat ishlarida to'la-to'kis qo'llanmadi, - deb ta'kidlaydi Sh.Ko'chimov. - Ayniqsa, bu davrda o'zbek huquqiy tili rivojlanmadi, qonunlarning o'zbekcha matni esa 5-10 ta tarjimonlarning ishiga aylandi, xolos. Tarjimonlar o'zlari bilganicha, qanday xohlashsa, shunday tarjima qildilar. Shu tariqa o'zbek qonunlarining tili g'alizlashib, uni tushunish qiyinlasha bordi. Natijada qonunning o'zbekcha matnini tushunish uchun uning ruscha matniga murojaat qilishga to'g'ri keladi. Shuningdek, ruscha huquqiy atamalarining o'zbekcha muqobillari turli qonunlarda (ba'zan bitta qonunda ham) turlicha ishlatilgan. Tarjima jarayonida moddalar mazmunan emas, so'zma-so'z tarjima qilingan.

O'zbek tilining o'ziga xos xususiyatlari, nozik qirralari hisobga olinmagan. Matn, o'zbekcha bo'lishidan qat'iy nazar, gaplar ruscha qoliplarga solingan, g'aliz va tushunarsiz so'z

va soʻz birikmalari tarkibi oshib ketgan».

Mustaqillik tufayli nafaqat yuridik hujjatlarni oʻzbek tilida yaratish, balki matnni oʻzbekcha fikrlash zaruriyati va, ayni paytda, imkoniyati vujudga keldi.

Ana shu fikrga amal qilinsa, yurisprudensiyada oʻzbek tilidan foydalanishning yagona tizimi yaratiladi. Bu esa atamalarni qoʻllashda, gap qurilishini shakllantirishda maʼlum darajada bir xillikka olib keladi.

Buning ustiga, yuridik tilga qoʻyiladigan gʻoyatda muhim bir talab mavjud. U hamma foydalana oladigan, tushunarli, ommaviy til boʻlishi lozim. Masalaning murakkabligi ham ana shunda. Huquqiy-meʼyoriy hujjatlar matnidan bir vaqtning oʻzida ham mukammallik, ham ommaviylikni daʼvo qilishimiz uning yaratuvchilaridan qanchalik bilim va mahorat talab etishini koʻrsatadi.

Psixologik tavsiyalar

O'rganilgan adabiyotlar taxliliga ko'ra quyidagi psixologik tavsiyalarni beramiz:

So'roq qilish davomida tergovchidan amaldagi qonun hujjat-larini yaxshi bilishi, protsessual qonunga ko'ra harakat qilishi, etik normalariga rioya qilishi talab qilinadi. Suhbat paytida tergovchi so'roq qilinuvchining ichki ruhiy dunyosiga e'tiborini qaratishga, unga to'g'ri keladigan "kalitni" topishga harakat qiladi.

Tergovchining mohirligi tufayli aytilmagan gaplar, yashiril-gan narsalar asta-sekinlik bilan yuzaga keladi. Tergovchi so'roq jarayonini bosqichma-bosqich amalga oshiradi. Ushbu bosqichlar 6 ta asosiy belgilarda namoyon bo'ladi tashqi va ichki psixologik omillar bilan bog'liq:

1-bosqich – tayyorgarlik darajasida, so'roqning maqsadi va reja-si, kimni va qachon so'roq qilish, uning vaqti va joyi belgilanadi;

2-bosqich – kirish qismida, tergovchining tashqi ko'rinishining ta'sir kuchi va birinchi ta'surotlarning samaradorligini ta'min-lanadi;

3-bosqich – psixologik aloqa o'rnatiladi;

4-bosqich – asosiy qismda, so'roqning maqsadiga erishiladi - haqiqatning qaror topishi, katartis holati yuzaga keladi;

5-bosqich – ko'rsatmalarni tuzatish, olingan ma'lumotlarni taq-qoslash, qarama-qarshi fikrlar va noaniqliklarni bartaraf qilish jarayoni ishga tushadi;

6-bosqich - qo'lga kiritilgan ma'lumotlarni qonuniy hujjat-lashtirish ishlari amalga oshiriladi.

So'roq davomida tergovchi va ayiblanuvchi o'rtasida ma'lumotlar almashuvi namoyon bo'ladi. Bu jarayon ikki turga bo'linadi:

1- verbal – so'z orqali;

2- noverbal - mimika, jestlar, pantomimika ekspressiv hara-katlar orqali.

Muloqotning noverbal turiga tergovchi katta e'tibor qaratishi lozim, chunki so'z bilan ifodalanmagan ko'rsatmalar, mimika, qo'l harakatlari orqali berilishi mumki.

Muloqotning noverbal turi verbal ma'lumotlarning emotsio-nal darajasini oshiradi, ya'ni,

- kerakli bo'lgan operativ ma'lumotlarni tez va yashirincha qo'lga kiritishga imkoniyat yaratadi (ya'ni vaqt tejaladi, vaziyat aniqla-shadi);

- muloqotning noverbal turi yo'nalish vazifasini bajaradi (bir tomondan yo'l ko'rsatadi, ikkinchi tomondan yo'ldagi nuhsanla-rini belgilab beradi).

So‘roqning natijasi ijobiy bo‘lishi uchun tergovchi quydagi sifat va qobiliyatlarga ega bo‘lishi lozim:

- tez muloqotga kirishuvchanligi;
- ruhiy mustahkamligi;
- o‘zgalarni eshita olishi va ular bilan so‘zlasha olishi;
- odamlarni bilishi;
- insonning ichki dunyosini o‘rganishi;
- xush muomila bo‘lishi;
- sezgir – hushyor bo‘lishi;
- toqatli bo‘lishi, o‘zini tuta bilishi kabilar.

Aloqa o‘rnatishning chuqurligi uning qay darajada amalga oshirilayotganligi bilan bog‘liq. Aloqa o‘rnatishning 3-ta darajasi mavjud:

1 darajasi - aloqaning dinamikasi (tezligi, ohangi, kuchi, nerv tizimining muvozanatligi);

2 darajasi - asoslash (so‘roq qiluvchining yoshi, hayotiy tajri-basi, intellektini nazarda tutgan holda isbot, dalillarni qo‘llash);

3 darajasi - ijtimoiy psixologik munosabatlar (so‘roq qili-nuvchilarning rolly mavqelari, uning mazmuni va qo‘yilgan maq-sadga erishishi) belgilanadi. Jinoiy ishda guvoh va jabrlanuvchilarning ko‘rsatmalari aha-miyatlidir. Ularni so‘roq qilish uchun quydagi tayyorgarlik daraja-siga ega bo‘lish kerak. Guvoh va jabrlanuvchilarni so‘roq qilishga qaratilgan tayyor-garlikning asosiy tartiblari:

- jinoiy ishning materiallari va aniqlash uchun ko‘zda tutilgan savollar jarayonini tahlil qilish;
- so‘roq qiluvchilar shaxsini o‘rganib chiqish;
- so‘roqning yutug‘i uchun kerakli bo‘lgan sharoitlarni qo‘llash;
- tergovchining hulqi, xatti-harakatlari inobatga olinadi.

So‘roqqa taklif qilinayotgan shaxsga ehtiyotkorlik bilan yondoshish lozim. Uni qo‘rqitib yubormaslik uchun to‘g‘ri keladigan vaqt va imkoniyatlarni ishga solib ko‘p kuttirib qo‘ymaslik kerak. Psixologik aloqa o‘rnatishning eng qulay usuli bu telefon orqali so‘roqqa chaqirtirish. Chunki telefon orqali so‘zlashuv ortiqcha hayajonlarni bartaraf qiladi va qarindosh-urug‘ va qo‘ni-qo‘shnidan so‘roqqa chaqirilishini yashirish uchun yaxshi imkoniyatini beradi. Bemorlar so‘roqqa chaqirilmaydilar, tergovchi o‘zi ularning yoniga boradi. Jinoiy ishning belgilarini izohlash uchun guvoh (jabrla-nuvchi) lar voqea sodir bo‘lgan joyga taklif qilinadilar.

Guvohlar alohida-alohida so‘roq qilinadilar. So‘roqning yaxshi natijasiga ega bo‘lish uchun tergovchi mohirona ish tutishi lozim. Bu yerda unga ilmiy bilim, shaxsiy sifatlar, qat’iyatli bo‘lishi, adolatli, haqgo‘y, o‘zini-o‘zi tuta olishi, idoraviy va ruhiy mustahkam bo‘lishi kabi ijtimoiy-psixologik sifatlar yordam beradi. Guvoh va jabrlanuvchilar tomonidan faktlarni yodga olishlari uchun tergovchi ularga erkin so‘zlashish imkoniyatini yaratib berishi lozim. Voqeaning faktlari batafsil va puxta izohlanishi kerak. Ularning ongiga jinoiy ish sodir bo‘lganligini singdirish lozim.

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati

1. O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasi. –T.: O'zbekiston, 2003.
2. I.A.Karimov “O'zbekiston XXI asr bo'sag'asida, xavfsizlikka taxdid va barqarorlik shartlari”. –T.: O'zbekiston, 1997
3. I.A.Karimov “O'zbekistonda demokratik o'zgartirishlarni yanada chuqurlashtirish va fuqarolik jamiyati asoslarini shakllantirishning asosiy yo'nalishlari”. –T.: O'zbekiston, 2002.
4. I.A.Karimov “Islohotlar strategiyasi – mamlakatimiz iqtisodiy salohiyatining yuksaltirilishidir”. –T.: O'zbekiston, 2003
5. I.A.Karimov O'zbekiston demokratik taraqqiyotining yangi bosqichida. –T.: O'zbekiston, 2005.
6. I.A.Karimov “Bizning maqsadimiz jamiyatni demokratlash-tirish va yangilash, mamlakatni modernizatsiya va isloh qilishdir”. // Xalq so'zi. 29 yanvar 2005 yil.
7. Karimov I.A. Inson, uning xuquq va erkinliklari hamda manfaatlari eng oliy qadriyat. «Xalq so'zi», 7 dekabr, 2005.
8. Karimov I.A. Erkin va faravon xayotni yuksak manaviyatsiz qurib bo'lmaydi. TDQA., 2006.
9. Vasilev V.L. Yuridicheskaya psixologiya. L. 2005 g.
10. Volodin A.I. Psixologiya sledstvennykh deystviy. Volgograd. 1988 g.
11. Godfrua J. Chto takoe psixologiya. M. 1999 g.
12. Gubin A.V. Obshenie v nashey jizni. M. 1992 g.
13. Dospulov G.G. Psixologiya doprosa na predvaritel'nom sledstvii. M. 2002 g.
14. Zaxarova N.V. Pravopreemstvo gosudarstv. M. 1998 g.
15. Koni A.F. Pravo i jizn. M. 1997 g.
16. Kostitskiy M.V. Sudebno-psixologicheskaya ekspertiza. Lvov. 1996 g.
17. Krutetskiy V.A. Psixologiya. M. 20004 g.
18. Lukashuk I.I. Mejdunarodnoe pravo. M. 1998 g.
19. R.M.Maxmudov. Pravovaya sotsializatsiya. Dokt.dis. 2003 g.
20. Norboev A.N., Usmonova A.A. Psixologicheskie osobennosti slendstviya po delam nesovershennoletnix.//Davlat va huquq. 2003 №4.
21. Romanov V.V. Yuridik psixologiya. M., 2005 y.
22. Sitkovskaya O.D. Sudebno-psixologicheskaya ekspertiza. M. 2000 g.
23. Usmanova A.A., Norboev A.N.. Yuridicheskaya psixologiya. TGYuI. 2005 g.
24. Usmanova A.A. Psixologicheskie osnovy ustanovleniya psixologicheskogo kontakta v obshenii. // Davlat va huquq. 2004. № 5.

25. Usmanova A.A., Shokirjonova N.T. Psixologicheskie osnovy polucheniya neobxodimoy informatsii ot svideteley, poterpevshix, podozrevaemyx i ob'vinyaemyx. //Davlat va huquq. 2005 g. № 6.
26. Chufarovskiy Yu.V. Yuridicheskaya psixologiya. Uchebnik. 2006.
27. Shadrikov V.D. Psixologiya proizvodstvennogo obucheniya. Yaroslavl.2000.
28. Shepel V.M. Upravlencheskaya psixologiya. M., 2003.
29. Yakovlev A.M. Prestupnost i sotsialnaya psixologiya. M., 2003.
30. Yakush S.Yu. Takticheskie priyomy pri rassledovanii prestupleniy. Kazan, 2000.
31. Yaroshevskiy M.G. Psixologiya v 20 stoletii: teoreticheskie problemy razvitiya psixologicheskoy nauki. M., 2002.